

O'zbekiston Respublikasi
Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi

**TA'LIM ISHTIROKCHILARINI PSIXOLOGIK QO'LLAB-
QUVVATLASH: SIMULYATSIYA VA KEYSLAR**

Pedagoglar uchun tavsiyalar

Toshkent-2025

“Ta’lim ishtirokchilarini psixologik qo’llab-quvvatlash: simulyatsiya va keyslar” nomli pedagoglar uchun tavsiyalar O‘zbekiston Respublikasi Ta’limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi Ilmiy-uslubiy kengashining 2025-yil 4-sentabrdagi 2-sonli yig‘ilish qarori bilan tasdiqlangan. Toshkent – 2025-yil. 36 bet.

Pedagoglar uchun ushbu tavsiyalar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi “O‘zbekiston-2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF–16-son Farmon va Davlat dasturida belgilangan vazifalarni bajarish maqsadida ishlab chiqilgan. Maktab va maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim oluvchilarning psixologik farovonligini ta’minlash, ularning shaxsiy-psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda har tomonlama rivojlanishini qo’llab-quvvatlash hamda ijtimoiy ko‘nikmalarini shakllantirish ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Ushbu metodik qo’llanma mazkur yo‘nalishdagi dolzarb masalalarni hal etishga qaratilgan ilmiy-uslubiy tavsiyalar va amaliy yechimlarni o‘z ichiga oladi. Xususan, bolalar bilan ishlashda pedagog va psixologlar tomonidan individual yondashuvni ta’minlash, otalar bilan samarali hamkorlik munosabatlarini shakllantirish, shuningdek ta’lim ishtirokchilariga sifatli psixologik yordam ko‘rsatish kabi muhim jihatlar ilmiy asosda yoritilgan. Shu bilan birga, pedagog kadrlarning kasbiy so‘nish holatlarini oldini olish va ularning stressga chidamliligini oshirish maqsadida psixologiya va ta’lim sohasida ishlab chiqilgan simulyatsiya va keys usullariga asoslangan tavsiyalar ham keltirilgan. Ushbu yondashuvlar ta’lim jarayonida ishtirok etuvchi barcha subyektlarning ruhiy salomatligini mustahkamlash, ta’lim samaradorligini oshirish va barqaror, motivatsion pedagogik muhitni shakllantirishga xizmat qiladi.

Tuzuvchilar:

Y.Risyukova, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD);

M.Pardayeva, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Sh.Muhammadiyeva, O‘zbekiston Respublikasi Ta’limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi bosh mutaxassisi.

U.Xalmonov — O‘zbekiston Respublikasi Ta’limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi bosh mutaxassisi;

Taqrizchilar:

S.Mo‘minov — O‘zbekiston Respublikasi Ta’limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi bosh mutaxassisi.

MUNDARIJA

KIRISH.....	4
I BOB. AMALIY SIMULYATSIYA: MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLANING XULQ-ATVORIDAGI QIYINCHILIKLAR VA OILA BILAN O‘ZARO TA‘SIR MODELI.....	6
1.1. Simulyatsiya: “Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining ziddiyatli xatti-harakatlari: ota-onasi bilan birgalikda yechim topish”.....	6
1.2. Simulyatsiya: “Maktabgacha ta’lim tashkilotida bolaning ziddiyatli xulq-atvori: onasi bilan birgalikda yechim topish”.....	9
1.3. Individual yechimlar: tarbiyachining interaktiv strategiyasi va oila bilan integrativ hamkorlik modeli.....	15
II BOB. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING XULQ-ATVORIDAGI QIYINCHILIKLAR: KEYSLAR ASOSIDAGI TAHLILI.....	20
2.1. Vaziyat tavsifi.....	20
2.2. Maktabgacha yoshdagi bolada kuzatilgan xulq-atvor qiyinchiliklarining keys asosidagi psixologik-pedagogik tahlili.....	20
2.3. Vaziyatning taklif etilgan yechimi.....	21
2.4. Emotsional va ijtimoiy intellekt ko‘nikmalarini o‘rgatish.....	23
III BOB. SIMULYATSIYA: MAKTAB SHAROITIDA O‘SMIRLARNING EMOTSIONAL VA XULQ-ATVOR QIYINCHILIKLARI.....	27
3.1. O‘smirlar davrida xulq-atvor qiyinchiliklari: muammo va dolzarb yondashuvlar.....	27
3.2. O‘smirni kompleks psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash.....	29
3.3. O‘zgarishlar dinamikasi va kuzatib borish rejasini amalga oshirish	34
IV BOB. “KOMPLEKS KEYS: O‘RTA MAKTAB SHAROITIDA O‘SMIRNING EMOTSIONAL VA XULQ-ATVOR QIYINCHILIKLARI”.....	36
4.1. Keys: umumiy o‘rta ta’lim maktablari sharoitida o‘smirning emotsional va xulq-atvor qiyinchiliklari.....	36
4.2. Pedagog va psixologning asosiy qadamlari	37
XULOSA.....	39
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	40
ILOVALAR.....	

Kirish

O'zbekiston Respublikasining zamonaviy ta'lim tizimi izchil amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ta'lim sifati va samaradorligini oshirish, o'quv jarayonining barcha ishtirokchilarining psixologik farovonligini ta'minlash, shuningdek, pedagog kadrlarning kasbiy rivojlanishi uchun zarur sharoitlarni yaratishga yo'naltirilgan. Hozirgi davrda pedagoglar faoliyatida kasbiy so'nishning oldini olish, stress omillarini boshqarish hamda emotsional barqarorlikni mustahkamlash bo'yicha tizimli yondashuvni shakllantirish muhim vazifa sifatida kun tartibiga qo'yilmoqda. Ta'lim sohasida olib borilayotgan davlat siyosati va strategik islohotlar doirasida pedagog xodimlarning psixoemotsional holatiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mazkur yondashuv o'z ifodasini ta'lim ishtirokchilarining psixologik farovonligini ta'minlashga qaratilgan bir qator normativ-huquqiy hujjatlarda topgan bo'lib, u barqaror, inklyuziv va qo'llovchi ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirishning me'yoriy-uslubiy asoslarini belgilab bermoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-son "O'zbekiston — 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"¹gi Farmonida maktab va maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim oluvchilarning psixologik salomatligi, ularning shaxsiy xususiyatlari va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha muhim vazifa belgilangan. Mazkur hujjatda pedagog va psixologlar tomonidan bolalar bilan ishlashda individual yondashuvni qo'llash, ota-onalar bilan samarali muloqotni yo'lga qo'yish, shuningdek, ta'lim ishtirokchilarini psixologik qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini joriy etish ko'zda tutilgan. Bu jarayon bolalarning psixologik farovonligini ta'minlash, ularning ijtimoiy-emotsional rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, "O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida pedagoglarning kasbiy so'nishining oldini olish, ularning stressga bardoshlilik darajasini oshirish va emotsional barqarorligini ta'minlashga qaratilgan innovatsion yondashuvlar ishlab chiqilmoqda. Jumladan, Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi tomonidan zamonaviy simulyatsiya va keys-modellari asosida tuzilgan metodik yechimlar amaliyotga joriy etilmoqda.

Mazkur tashabbuslar o'qituvchilarning ruhiy salomatligini mustahkamlash, kasbiy motivatsiyasini qo'llab-quvvatlash, shuningdek, ta'lim jarayonining sifat va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu boisdan, pedagogik kadrlarni kompleks

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-son "O'zbekiston — 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi Farmoni <https://lex.uz/docs/7369703>

psixologik qo'llab-quvvatlash, xususan, simulyatsiya va keys-uslublarini tizimli joriy etish, O'zbekiston ta'lim tizimida barqaror va samarali inson resurslarini shakllantirishga qaratilgan strategik yo'nalishlar tarkibida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

I BOB. AMALIY SIMULYATSIYA: MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLANING XULQ-ATVORIDAGI QIYINCHILIKLAR VA OILA BILAN O‘ZARO TA’SIR MODEL

1.1. Simulyatsiya: “Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining ziddiyatli xatti-harakatlari: ota-onasi bilan birgalikda yechim topish”.

Mazkur simulyatsion model maktabgacha ta’lim tashkilotida bolalar o’rtasida uchraydigan ziddiyatli xatti-harakat holatini o’rganish va unga nisbatan samarali pedagogik-psixologik yondashuvni qo’llash imkonini beradi. Model asosida tarbiyachi va ota-ona ishtirokida boladagi muammoni aniqlash, sabablarini tahlil qilish, hamkorlikda yechim topish bosqichlari ko’zda tutiladi.

Simulyatsiya jarayonida quyidagilar inobatga olinadi:

bolaning yoshiga va individual xususiyatlariga mos psixologik portretini tuzish;
ziddiyatli xatti-harakatlarning sabablarini aniqlash (oilaviy fon, ijtimoiy muhit, emotsional muvozanatsizlik va b.);

tarbiyachi va ota-onaning pozitsiyasini tushunish, o’zaro muloqot mexanizmlarini faollashtirish;

yakuniy yechimni birgalikda ishlab chiqish (moslashuv, muqobil xatti-harakatlarni shakllantirish va boshqalar).

Bu yondashuv pedagogik amaliyotda yuzaga keladigan murakkab vaziyatlarni tizimli hal qilishda yuqori samara beradi, bolalar bilan ishlashda individual va inklyuziv yondashuvlarni chuqurlashtirish imkonini beradi.

Simulyatsiya mashg’ulotining maqsadi:

Bolada xulq-atvor bilan bog’liq muammolar yuzaga kelganda, tarbiyachi va ota-onalar o’rtasida samarali muloqotni yo’lga qo’yish, individual yondashuv asosida bolaga nisbatan ijobiy munosabat shakllantirish va tarbiyachi – oila hamkorligida ishonchli psixologik aloqalarni rivojlantirishdan iborat.

Mazkur yondashuv bolani ijtimoiy qo’llab-quvvatlash, tarbiyalash va ta’lim berish tizimini takomillashtirish, shuningdek, inklyuziv ta’lim tamoyillariga asoslangan holda psixologik qulay muhitni yaratish orqali maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi. Shu orqali O’zbekiston Respublikasi ta’lim siyosatida belgilangan zamonaviy talablar va normativ-huquqiy asoslarga muvofiq pedagogik amaliyotni takomillashtirishga yo’naltiriladi.

Ishtirokchilar:**Tarbiyachi** — Nodiraxon Soliyeva**Bola** — Azizbek, 5 yosh**Onasi** — Malika opa, Azizbekning onasi

Maktabgacha ta'lim tashkilotining tayyorlov guruhida faoliyat yurituvchi tarbiyachi Nodiraxon Soliyeva kuzatuv jarayonida bolalardan biri — Azizbek tomonidan ketma-ket uch kun davomida tajovuzkor xatti-harakatlar namoyon qilinayotganini aniqladi. Xususan, u guruhdoshlarini turtib yuborish, mashg'ulot jarayoniga to'sqinlik qilish, tarbiyachining ko'rsatmalariga bo'ysunmaslik, o'yinchoqlarni baham ko'rmaslik kabi salbiy munosabatlarni takrorlay boshlagan.

Navbatdagi holatda ertalabki faoliyat davomida Azizbek guruhdagi qizchani jismoniy kuch bilan itarib yuborgan va uning konstruktor – yig'ma o'yinchog'ini tortib olgan. Tarbiyachi pedagog tomonidan bolaning xatti-harakatlariga nisbatan og'zaki suhbat va tarbiyaviy tushuntirish ishlari o'tkazilgan bo'lsa-da, bola suhbatni rad etib, baland ovozda baqirgan va burchakka o'zini yashirgan.

Mazkur holat yuzasidan tarbiyachi Azizbekning onasini suhbatga taklif qiladi. Ammo ota-ona vaziyatga keskin emotsional munosabat bildiradi:

“O'g'lim uyda xotirjam, odobli bola. Balki guruhda kimdir unga yomon munosabatda bo'layotgandir? Nega birinchi bo'lib Azizbekni ayblaysiz?”, — deya e'tiroz bildirdi. Bu vaziyat bola tomonidan namoyon bo'layotgan xatti-harakatlarning sabablarini chuqur tahlil qilish, oilaviy va ijtimoiy omillarni hisobga olgan holda kompleks yondashuv asosida muammoni hal etish zarurligini ko'rsatadi.

Shuningdek, pedagog va ota-ona o'rtasida o'zaro ishonchli muloqot o'rnatish, bolaga nisbatan birgalikdagi samarali yondashuvni ishlab chiqish muhimligini ta'kidlaydi.

Rol va harakatlar.**Tarbiyachi:**

Tarbiyachi bola xatti-harakatidagi o'zgarishlar va muammoli vaziyatlarni ota-onaga xotirjamlik va professionallik asosida izohlaydi. U farzandning guruhdagi kundalik faoliyati, boshqa bolalar bilan o'zaro munosabatlari va muayyan noxush holatlar yuzasidan aniq faktlarga asoslangan dalillarni taqdim etadi. Pedagogik muloqot davomida tarbiyachi ayblov ohangidan saqlanadi, ota-onaning e'tirozlari va his-tuyg'ulariga hurmat bilan yondashadi.

Suhbatda asosiy e'tibor muammoning ildiziga emas, balki birgalikda yechim topishga qaratiladi. Bunda u ota-onani sheriklikka jalb qilgan holda, bolaning xulq-atvorini korrektsiyalash va unga mos tarbiyaviy yondashuvni belgilashni taklif qiladi. Tarbiyachining bunday konstruktiv yondashuvi:

ota-ona bilan ishonchli munosabat o'rnatish;

bolaning manfaatlariga xizmat qiluvchi qarorlar qabul qilish;
uzoq muddatli ijtimoiy-emosional rivojlanish uchun psixologik asos yaratish imkonini beradi.

Ona:

Dastlabki suhbat davomida ona o'g'lini himoya qilish pozitsiyasida bo'ladi, bu esa ota-onalarning odatiy psixologik himoya mexanizmlaridan biridir. Biroq tarbiyachi tomonidan tinch, ochiq va ayblovsiz muloqot yo'lga qo'yilgach, u bosqichma-bosqich aniqlashtiruvchi savollar bera boshlaydi va suhbatni davom ettirishga tayyorlik bildiradi. Ota-ona suhbat jarayonida farzandining uydagi xulq-atvori, emotsional holati va oilaviy muhit haqida muhim ma'lumotlarni o'rtoqlasha boshlaydi.

Bola holati (rolli o'yinlar yoki uchinchi shaxs nomidan tahlil orqali ifodalash)

Bolada kuzatilayotgan ziddiyatli xatti-harakatlar yashirin emotsional holatning belgisi bo'lishi mumkin. Jumladan, u stress holatida yoki rashk hissiyatini boshdan kechirayotgan bo'lishi mumkin (masalan, yaqin orada ukasi tug'ilgan bo'lib, ota-onaning e'tibori boshqa yo'nalgan bo'lishi ehtimoli). Bu kabi holatlar bolaning xatti-harakatlarida bevosita aks etadi va ular tarbiyachilar tomonidan individual yondashuv asosida baholanmog'i lozim..

Muhokama uchun savollar:

Quyidagi savollar orqali pedagogik jamoa hamda ota-onalar ishtirokida simulyatsiya yakunida chuqur tahlil va fikr almashinuvi tashkil etilishi mumkin:

Tarbiyachi nizoni chuqurlashtirmasdan, konstruktiv va ishonchli muloqotni ota-ona bilan qanday shakllantirishi mumkin?

Bolalarda kuzatilayotgan ziddiyatli xatti-harakatlarning asosiy psixologik sabablarini aniqlashda qanday yondashuvlar samarali bo'ladi?

Ota-onani xulq-atvorni korrektsiyalash jarayoniga qanday jalb qilish mumkin?

Qanday umumiy choralar ko'rish mumkin?

sistematik kuzatuv;

psixolog ishtirokida maslahatlar;

hamdardlikni rivojlantiruvchi pedagogik o'yinlar;

ijtimoiy-emosional ko'nikmalarni mustahkamlovchi mashg'ulotlar.

Kutilayotgan simulyatsiya natijasi:

Ushbu simulyatsiya mashg'ulotini o'tkazish natijasida ishtirokchilarda quyidagi kasbiy-pedagogik kompetensiyalar shakllanishi va mustahkamlanishi kutiladi:

Ota-onalar bilan muloqotda professional yondashuv asosida xotirjam, muloyim va konstruktiv suhbat olib borish ko'nikmalarini egallaydilar.

Bolaning muammoli xatti-harakatlariga faqat tashqi ko'rinish asosida baho berishdan voz kechib, holatning psixologik va ijtimoiy ildizlarini tahlil qilishga yo'naltirilgan chuqur yondashuvni shakllantiradilar.

Pedagog va oila o'rtasidagi hamkorlik — bolani tarbiyalash, psixologik qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy inklyuziya jarayonida muhim omil ekanini anglaydilar. Bu esa mamlakatimizda bolalar tarbiyasi va farovonligiga qaratilgan davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

1.2. Simulyatsiya: “Maktabgacha ta’lim tashkilotida bolaning ziddiyatli xulq-atvori: onasi bilan birgalikda yechim topish”.

Pedagogik vaziyatning tahlili.

Mazkur simulyatsiya mashg'uloti pedagog kadrlarning xulq-atvorida qiyinchiliklar mavjud bo'lgan bolalar bilan ishlash jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizoli vaziyatlarga kompetent va konstruktiv yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi.

Ayniqsa, ta'lim jarayonining asosiy ishtirokchilaridan biri bo'lgan ota-onalar bilan ishonchli, ochiq va samimiy muloqot o'rnatish ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Azizbek misolida kuzatilgan ziddiyatli xatti-harakatlar oddiy intizom buzilishi emas, balki bolaning ichki emotsional holatidagi o'zgarishlarining signali sifatida talqin qilinadi. Bunday holatlar nafaqat pedagogik aralashuvni, balki holatning psixologik ildizlariga oid chuqur diagnostikani ham talab qiladi. Ziddiyatli xatti-harakatlar ko'pincha boladagi ichki stress holatlari, oiladagi ijtimoiy-emotsional o'zgarishlarga bo'lgan psixologik reaksiya yoki ota-onaning yetarli e'tibor qaratmasligi oqibati sifatida shakllanishi mumkin. Bunday hollarda esa korrektsiyaviy ishlar kompleks, tizimli va individual yondashuv asosida tashkil etilishi zarur.

Yosh bolalar tengdoshlar muhitida (masalan, maktabgacha ta'lim tashkiloti, o'yin maydonchasi, mahalla hovlisi va boshqalar) bo'lganida ijtimoiy e'tirofga sazovor bo'lish, tan olinish, himoyalanganligini his qilish va atrofdagilarning e'tiborini qozonishga intiladi. Bu ehtiyojlar — bolaning shaxsiy va emotsional rivojlanishining dastlabki bosqichlarida kuchli namoyon bo'ladigan tabiiy holatdir.

Biroq bu yosh davrida muloqot ko'nikmalari hali to'liq shakllanmagan, qo'zg'alish jarayonlari faollikni susaytirishdan ustun, axloqiy-etik me'yorlar esa endigina shakllanib borayotgan bo'ladi. Natijada ba'zi bolalar ijtimoiy mavqeini tajovuzkor, ziddiyatli va zo'ravon usullar orqali mustahkamlashga harakat qiladi. Ular tajovuzkorlikni ijtimoiy ta'sir ko'rsatish vositasi sifatida qo'llashi mumkin.

Ayniqsa, bosh miyasida organik rezidual o'zgarishlar mavjud bo'lgan, ijtimoiy qarovsiz qolgan, ota-onasi tomonidan rad etilgan yoki psixik rivojlanishida cheklovlar bo'lgan bolalarda agressiv xatti-harakatlar ko'proq va tez-tez kuzatiladi. Bundan tashqari, ota-onalarning haddan tashqari qat'iy yoki inkor etuvchi tarbiya uslublari ham bolada yuqori darajadagi tajovuzkorlikka moyillikni shakllantirishi mumkin.

Mazkur holatlarni o'z vaqtida aniqlash va samarali pedagogik yondashuvni qo'llash uchun tarbiyachilarda kuzatuvchanlik, muammoni baholash, individual yondashuv va konstruktiv muloqot ko'nikmalarini shakllantirish zarur bo'ladi. Aynan shu ehtiyoj pedagogik simulyatsiya mashg'ulotlarining mazmunini belgilaydi. Simulyatsiya orqali real vaziyatlar modellashtirilib, tarbiyachilar professional holatlarda to'g'ri va mas'uliyatli qaror qabul qilishni o'rganadilar.

Simulyatsiyaning pedagogik maqsad va vazifalari:

Maktabgacha yoshdagi bolalarda kuzatiladigan ziddiyatli xatti-harakatlar ko'pincha tashqi ko'rinishdagina baholanishga harakat qilinadi. Biroq bunday holatlar chuqur psixologik sabablarga ega bo'lishi mumkinligi sababli, ularni aniqlash va to'g'ri baholash uchun ilmiy asoslangan pedagogik kuzatuv va tizimli diagnostik yondashuv muhim hisoblanadi. Kuzatuvlar nafaqat bolaning xatti-harakatini aks ettiradi, balki uning emotsional ehtiyojlari, ijtimoiy moslashuvi, va oilaviy muhit bilan o'zaro ta'siri to'g'risida ham muhim ma'lumotlar beradi.

Pedagogik kuzatuv quyidagi yo'nalishlarni qamrab oladi:

bola xulq-atvorining turli vaziyatlardagi (o'yin, mashg'ulot, erkin faoliyat) namoyon bo'lish shakllarini tahlil qilish;

bola va uning tengdoshlari, tarbiyachilar hamda oilasi o'rtasidagi o'zaro munosabatni kuzatish;

xulq-atvorni belgilovchi asosiy omillar (emotsional fon, e'tibor yetishmovchiligi, stress holati)ni aniqlash;

korreksion yondashuvlar uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar bazasini shakllantirish.

Bu jarayonda tarbiyachi nafaqat kuzatuvchi, balki muammoni tahlil qiluvchi, pedagogik vositalar orqali yechim taklif etuvchi hamkor sifatida ishtirok etadi. Aynan shu nuqtada pedagogik simulyatsiya real vaziyatlarni modellashtirish orqali tarbiyachilarda kasbiy refleksiya



va psixologik sezgirlikni rivojlantirish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Kuzatuv asosida to'plangan ma'lumotlar:

bolaning individual rivojlanish rejasini tuzish;

oilasi bilan individual ishlash strategiyasini ishlab chiqish;

psixologik-pedagogik konsilium tavsiyalarini shakllantirish uchun zamin yaratadi.

Bunday yondashuv — bola xulq-atvoridagi muammolarni erta bosqichda aniqlash, ularni kompleks tarzda hal qilish va keyingi rivojlanish uchun psixologik qulay muhitni shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi.

Bunday vaziyatda qo'llaniladigan vositalar va yondashuvlar:

Pedagogik kuzatuv kundaligi – simulyatsion yondashuv doirasida qo'llaniladigan asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Mazkur kundalikda tarbiyachi bolaning nomaqbul xulq-atvor shakllari, emotsional reaksiyalari, ularning yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan psixologik, ijtimoiy omillarni tizimli ravishda qayd etadi. Bunday amaliy yondashuv Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan tavsiya etilgan tarbiyalanuvchilarni individual kuzatib borish, baholash va rivojlanishini monitoring qilish bo'yicha metodik ko'rsatmalarga to'la mos keladi. Pedagogik kuzatuvlar asosida shakllangan ma'lumotlar bolaning emotsional holati, ijtimoiy moslashuvi, stress belgilari kabi muhim jihatlarni aniqlashga xizmat qiladi va keyingi korreksion strategiyalarni belgilash uchun zarur tahliliy asos yaratadi.

Ota-ona bilan konstruktiv suhbat skripti – bosimsiz, ayblovlarisiz va ochiq muloqot tamoyillariga asoslangan holda tashkil etiladi. Bunday yondashuv oilaning ishonchli ijtimoiy hamkori sifatida ta’lim muassasasi bilan o’zaro hurmat, barobar muloqot va mas’uliyatli sheriklik munosabatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Suhbat davomida tarbiyachi bolaning xatti-harakatlari yuzasidan xolis tahlil asosida fikr bildiradi, muammoni birgalikda hal etish bo’yicha takliflar bildiradi hamda ota-onaning fikrini inobatga olgan holda konstruktiv yechimlar ishlab chiqadi. Shuningdek, o’yin diagnostikasi — bolada mavjud bo’lishi mumkin bo’lgan emotsional qiyinchiliklar, ichki qarama-qarshiliklar va ijtimoiy o’zaro ta’sir xususiyatlarini aniqlashda muhim usul sifatida qo’llaniladi. Bunday diagnostika:

tarbiyachi tomonidan — erkin o’yinlar yoki syujetli-rolli o’yinlar davomida kuzatuv asosida;

psixolog bilan hamkorlikda esa — maxsus tuzilgan loyihaviy uslublar, o’yinli testlar va psixodiagnostik texnikalar orqali amalga oshiriladi.



O’yin diagnostikasi bolaning yashirin ehtiyojlari, xavotirlari, agressiv reaksiyalari yoki ijtimoiy moslashuvdagi muammolarni aniqlashga imkon beradi. Bu esa keyingi pedagogik va psixologik yondashuvlar uchun aniq asos bo’lib

xizmat qiladi.

Rivojlantiruvchi mashg’ulotlar — ziddiyatli xulq-atvorning profilaktikasi va korreksiyasida muhim pedagogik vosita sifatida xizmat qiladi. Ushbu mashg’ulotlar orqali bolalarning o’z xatti-harakatlarini boshqarish, emotsiyalarini anglash va ifodalash, muloqotdagi konstruktiv strategiyalarni shakllantirish kabi ijtimoiy-emotsional ko’nikmalar rivojlantiriladi.

Amaliyot jarayonida bu turdagi mashg’ulotlar quyidagilarni o’z ichiga oladi:

o’z-o’zini nazorat qilish;

his-tuyg’ularni ifodalash va tan olish;

ijtimoiy muloqot qoidalarini o’rganish;

empatiya va hamdardlikni shakllantirishga qaratilgan rolli va reflektiv o’yinlar.

Bunday faoliyatlar O'zbekiston Respublikasining maktabgacha ta'lim dasturlarida belgilangan emotsional intellekt ko'nikmalarini rivojlantirish vazifalariga to'la mos keladi. Shuningdek, bolada ijobiy xulq-atvorni mustahkamlash uchun ijobiy qo'llab-quvvatlash tizimi alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu tizim quyidagilarni o'z ichiga oladi:

tarbiyachining og'zaki va vizual rag'batlantirish shakllari (maqto'v, belgi, tabassum, ishora);

motivasiyani oshiruvchi elementlar (rag'bat, rol'ni tan olish);

ota-onalarni rag'batlantirish va bolani quvvatlovchi muhit yaratishda faol ishtirok ettirish.

Mazkur yondashuv bolalarning ijobiy xatti-harakat modellarini shakllantirish va ularni barqarorlashtirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, u O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ilk va maktabgacha yoshidagi bolalarni rivojlantirish borasidagi Davlat talablariga muvofiq belgilangan motivatsion va milliy qadriyatlarga yo'naltirilgan yondashuvlar bilan uzviy bog'liqdir.

Ota-ona bilan hamkorlikda ishlash rejasi:

Ziddiyatli xulq-atvor namoyon etayotgan bola bilan muvaffaqiyatli ishlashning eng muhim shartlaridan biri bu uning oilasi bilan yaqin, ishonchli va hurmatga asoslangan hamkorlik munosabatlarini o'rnatishdir. Chunki bola shaxsining tarbiyasi, xulq-atvori va ijtimoiy moslashuvi, eng avvalo, oilaviy muhit va ota-onaning pedagogik yondashuviga bevosita bog'liqdir. Shu sababli pedagogik amaliyotda ota-onalar bilan o'zaro aloqalar tizimli, ochiq va muntazam muloqot shaklida tashkil etilishi lozim.

Ijobiy natijalarga erishish uchun ota-ona bilan muloqot o'zaro anglashuv, empatiya, ayblovsiz muloqot va hamkorlikda yechim izlash tamoyillariga asoslangan bo'lishi zarur. Tarbiyachilar ota-onalarni bolaning xatti-harakatlariga doir kuzatuv natijalari bilan muntazam tanishtirishi, ziddiyatlilikning ehtimoliy psixologik va ijtimoiy sabablarini birgalikda tahlil qilishi va individual korreksion choralarni kelishilgan holda amalga oshirishi kerak.

Ushbu jarayonda quyidagi jihatlarga alohida e'tibor qaratilishi tavsiya etiladi:

bolaning individual psixologik xususiyatlarini inobatga olish;

bola uchun qulay va xavfsiz psixologik muhit yaratish;

yashash joyi va ta'lim muassasasida yondashuvlar va tarbiya uslublarining uzviyligini ta'minlash.

Ota-onalarning tarbiya jarayoniga faol jalb etilishi pedagogik yondashuvlarning uy va maktabgacha ta'lim muassasasida izchil qo'llanilishini ta'minlaydi. Bu esa, o'z

navbatida, bolaning emotsional barqarorligi, ishonch hissining shakllanishi, va o'zini o'zi boshqarish ko'nikmalarining rivojlanishi uchun muhim zamin yaratadi.

Shuningdek, ota-onalar bilan olib boriladigan suhbatlar jarayonida quyidagilarga amal qilinishi lozim:

xotirjam, betaraf va professionallik asosida yondashish;

nizoning asosiy sabablarini aniqlash va muammoni hal qilishga e'tibor qaratish;

bolaning guruhdagi ijtimoiy munosabatlarini tiklashga yordam berish;

ota-ona va pedagog uchun to'g'ri harakatlar strategiyasini ishlab chiqishda ko'maklashish.

Bunday kompleks yondashuv keskin vaziyatlarga hissiy javob bermaslik, masalaga real asoslangan, barqaror va ijobiy yechim topish imkonini beradi. Bu esa bola uchun xavfsiz, qo'llovchi va barqaror psixologik muhit shakllantirishga xizmat qiladi.

Shu munosabat bilan, oila bilan hamkorlik rejasi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga olishi mumkin:

Oila bilan hamkorlik rejasining bosqichlari: Ziddiyatli xatti-harakatlarga ega bolalar bilan samarali pedagogik ish olib borishda oila bilan tizimli hamkorlikni yo'lga qo'yish alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday hamkorlik bosqichma-bosqich amalga oshirilganida u ijobiy natijalar beradi va bolani kompleks qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Quyida oila bilan ishlash bo'yicha taklif etilayotgan asosiy bosqichlar keltiriladi:

Muntazam fikr almashuvni yo'lga qo'yish: Har kuni yoki hafta yakunida ota-ona va tarbiyachi o'rtasida "Kuning qanday o'tdi?" mavzusida qisqa fikr almashish (og'zaki yoki yozma shaklda). Bu bola holatini doimiy kuzatish va har ikki tomonlama xabardorlikni ta'minlaydi.

Uy sharoitini birgalikda tahlil qilish: Ota-onalar bilan bolaning oilaviy muhitidagi so'nggi o'zgarishlarni muhokama qilish: masalan, yangi farzand tug'ilganmi, kun tartibida o'zgarish bo'lganmi, yoki bolaga nisbatan e'tibor yo'nalishida sezilarli farq kuzatilganmi.

Yagona va izchil pedagogik yondashuvni kelishib olish: Uyda va ta'lim muassasasida bolaning xatti-harakatlariga nisbatan bir xil munosabat va tartib me'yorlarini qo'llash: nima rag'batlantiriladi, nima esa nomaqbul hisoblanadi. Bu bola uchun barqarorlik hissini shakllantirishga xizmat qiladi.

Natijalarni monitoring qilish va takroriy uchrashuv: Dastlabki pedagogik hamkorlik natijalarini baholash uchun 5–7 kun ichida takroriy uchrashuv belgilanishi lozim. Bu oraliq

tahlil, individual yondashuv samaradorligini baholash hamda kerak bo'lsa, strategiyani yangilash imkonini beradi.

Zarur hollarda mutaxassis tavsiyasini taklif qilish: Agar bolaning xatti-harakatlaridagi og'ishlar chuqurroq diagnostika yoki emotsional yordami talab qilsa, ota-onalarga Maktabgacha ta'lim muassasasi psixologi yoki boshqa mutaxassis maslahati tavsiya qilinadi. Bu bosqichlar orqali ota-onalar va tarbiyachilar o'rtasidagi o'zaro ishonch mustahkamlanadi, bola uchun esa barqaror, uyg'un va qo'llovchi muhit shakllanadi. Bu yondashuv nihoyatida bolaning xulq-atvoridagi qiyinchiliklarni bartaraf etishga xizmat qiladi.

Kutilgan simulyatsiya natijalari.

Simulyatsion mashg'ulotlar yakunida ishtirokchilarda quyidagi kasbiy-pedagogik ko'nikmalar va nazariy tushunchalar shakllanishi kutiladi:

pedagogik vaziyatlarda, ayniqsa nizoli holatlarda pedagogik ehtiyotkorlik va emotsional muvozanatni saqlashning ahamiyati anglanadi;

“Zo'ravonliksiz muloqot” tamoyillari va konstruktiv, qo'llab-quvvatlovchi fikr bildirish usullari bo'yicha amaliy ko'nikmalar shakllantiriladi;

ishtirokchilar maktabgacha yoshdagi bolalarning nomaqbul xulq-atvorini baholashda faqat tashqi ifodalarni emas, balki ushbu xatti-harakatlarning ichki psixologik, ijtimoiy-emotsional va oilaviy omillarini aniqlash va tahlil qilish zaruriyatini anglaydilar;

ota-onalar bilan o'zaro hurmat, ochiqlik va psixologik qo'llab-quvvatlash tamoyillariga asoslangan hamkorlik munosabatlarini shakllantirish ko'nikmalari egallanadi;

tarbiyachining bola, guruh va oila o'rtasida vositachi sifatidagi roli hamda psixologik sezgirlik, samarali muloqot va kuzatuvchanlik kabi kasbiy kompetensiyalarining ahamiyati anglanadi.

Mazkur natijalar pedagoglarning kasbiy refleksiyasini chuqurlashtirish, tizimli va kompleks yondashuvni qo'llash hamda ota-onalar bilan muloqotda ongli va mas'uliyatli pozitsiyasini shakllantirishga xizmat qiladi.

1.3. Individual yechimlar: tarbiyachining interaktiv strategiyasi va oila bilan integrativ hamkorlik modeli.

Bolaning xulq-atvori va emotsional holatini tartibga solishda, shuningdek, ota-onalar bilan konstruktiv hamkorlikni yo'lga qo'yishda pedagogning kasbiy kompetensiyasi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Tarbiyachilar ziddiyatlilik yoki boshqa nomaqbul xatti-

harakatlarni erta aniqlash, ularni tahlil qilish va mos korreksion choralarni qo'llashda nazariy bilim bilan bir qatorda amaliy ko'nikmalarga ham ega bo'lishi lozim.

Tarbiyachining asosiy vazifalaridan biri — bola va uning oilasi o'rtasida samarali pedagogik aloqani yo'lga qo'yishdir. Bunda ishonchli va ochiq muloqot, bolaning holatini baholash va tarbiyaviy strategiyalarni ota-onalar bilan birgalikda ishlab chiqish muhim o'rin tutadi. Bu yondashuv bolaga barqaror psixologik muhit yaratish, xulq-atvoridagi salbiy omillarni bartaraf etish va uning shaxsiy salohiyatini rivojlantirish imkonini beradi.

Simulyatsion mashg'ulotlar va pedagogik kuzatuv vositalari tarbiyachilarda murakkab vaziyatlarda professional munosabat bildirish, diagnostika yuritish va individual rivojlanish trayektoriyasini aniqlash kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Har bir bolaning rivojlanish sur'atlari, ehtiyojlari va emotsional holatini inobatga olgan yondashuv orqali korreksion ishlar samaradorligi oshiriladi.

Tarbiyachi strategiyasi.

Tarbiyachining ziddiyatli xulq-atvorni boshqarishdagi roli tizimli, tahliliy va hamkorlikka asoslangan yondashuvni talab etadi. Quyidagi strategik komponentlar samarali pedagogik amaliyotni tashkil etadi:

Xatti-harakatlarni muntazam monitoring qilish: Bolaning ijtimoiy va emotsional reaksiyalarini tizimli kuzatish va pedagogik kundalikda qayd etish, salbiy xatti-harakatni keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlashda muhim vositadir. Bu kuzatuvlar asosida holatlarning dinamikasi tahlil qilinadi va individual rivojlanish trayektoriyasi ishlab chiqiladi.

Ota-onalar bilan empatik (hissiy tushunishga asoslangan) **va neytral muloqot:** Tarbiyachi ota-onaning emotsional reaksiyasidan qat'i nazar, kasbiy betaraflikni saqlagan holda konstruktiv va hurmatga asoslangan muloqotni tashkil etadi hamda zo'ravonliksiz kommunikatsiya tamoyillarini amalda qo'llaydi.

Hamkorlik asosida qaror qabul qilish: Tarbiyachi ota-onalar bilan ishonchli hamkorlik o'rnatib, bolaning psixologik va oilaviy xususiyatlariga mos yechimni birgalikda ishlab chiqadi.

Individuallashtirilgan pedagogik ta'sir choralarni qo'llash: Tarbiyachilar bolaning emotsional holatini tahlil qilishda rivojlantiruvchi va ijtimoiy-emotsional o'yinlardan foydalanadilar. Ushbu yondashuvlar bola hissiyotlarini anglash, nazorat qilish va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tarbiyachining zo'ravonlikka moyil xulq-atvor holatlarini boshqarishdagi samarali strategiyasi — bu tizimli kuzatuv, empatik va konstruktiv muloqot, oila bilan sheriklik asosidagi hamkorlik hamda individuallashtirilgan pedagogik texnologiyalarni uyg'un

qo'llashdan iborat. Bunday integrativ yondashuv bolaning ehtiyojlariga mos ta'sir o'tkazib, uning emotsional farovonligi va ijtimoiy moslashuvini ta'minlaydi.

Oila bilan integrativ hamkorlik modeli – bu maktabgacha ta'lim muassasasi pedagogi va tarbiyalanuvchilarning ota-onasi o'rtasidagi barqaror, tizimli va o'zaro ishonchga asoslangan sheriklik aloqalarini tashkil etishga qaratilgan pedagogik yondashuv bo'lib, unda bolani har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda rivojlantirish ustuvor maqsad sifatida belgilanadi. Mazkur model quyidagi asosiy komponentlarga tayangan holda amalga oshiriladi:

Oila bilan hamkorlikdagi harakatlar. Bolaning muammoli xulq-atvorini yaxshilashda ota-ona va tarbiyachining yaqin hamkorligi muhim. Bolaning holati haqida muntazam fikr almashish, oilaviy vaziyatni hisobga olish va muammoni birga hal qilish orqali barqaror tarbiyaviy muhit yaratiladi. Zarurat tug'ilganda psixolog kabi mutaxassislar yordami ham jalb qilinadi. Bu esa bolaning o'zini erkin va ishonchli his qilishiga yordam beradi.

Muntazam teskari aloqa. Pedagog va ota-ona o'rtasidagi muntazam va tizimli axborot almashinuvi bolaning emotsional holati va xulq-atvoridagi o'zgarishlarni erta aniqlash, shuningdek, tarbiyaviy strategiyani moslashtirish va individuallashtirish imkonini yaratadi. Bu jarayon bola rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni voqelik asosida baholash, oila va ta'lim muassasasi o'rtasida mustahkam ishonch muhitini shakllantirishga xizmat qiladi.

Oilaviy muhit tahlili. Bolaning emotsional holati va xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash maqsadida ota-onalar bilan birgalikda oila muhitidagi holatlarni kompleks tahlil qilish muhim hisoblanadi. Bunga oila tarkibidagi o'zgarishlar, kun tartibi, maishiy-moddiy sharoitlar va psixologik-ijtimoiy ta'sirlar kiradi. Bunday muloqot bolaning ijtimoiy-emotsional muvozanatini saqlash va tarbiyaviy yondashuvni moslashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yagona tarbiyaviy yondashuvlarni uyg'unlashtirish. Ta'lim muassasasi va oilada bolaga nisbatan qo'llaniladigan xulq me'yorlari va qo'llab-quvvatlovchi uslublarni muvofiqlashtirish orqali tarbiya jarayonining izchil va yaxlit tashkil etilishini ta'minlashdir.

Zarur hollarda soha mutaxassislarini jalb qilish. Bola muammosining chuqur tahlili va xulq-atvor korreksiyasiga doir kompleks tavsiyalar ishlab chiqishda muhim omildir.

Shunday qilib, kasbiy refleksiya, konstruktiv muloqot va oila bilan integrativ hamkorlikka asoslangan kompleks yondashuv bola shaxsining ijtimoiy-emotsional

rivojlanishini qo'llab-quvvatlash, ziddiyatli holatlarni kamaytirish va psixologik moslashuvini ta'minlashga xizmat qiladi.



Keys usuli: tushunchasi, maqsadi va vazifalari

Keys (case-study) usuli — bu real yoki shartli o'quv vaziyatlarini tahlil qilish orqali muammoni aniqlash, uni baholash hamda yechim topishga yo'naltirilgan interfaol o'qitish texnologiyasidir. Ushbu metod orqali o'quvchilarda tahliliy fikrlash, muammoga nisbatan zamonaviy yondashish, muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish va qaror qabul qilish kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

O'quv jarayonida keys usuli quyidagi asosiy maqsadlarni ta'minlashga xizmat qiladi:

- muammoli vaziyatni tahlil qilish ko'nikmasini rivojlantirish;
- qaror qabul qilish kompetensiyasini shakllantirish;
- tanqidiy va tahliliy fikrlashni faollashtirish;
- kommunikativ va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish;
- hayotga yaqin bilim va ko'nikmalarni shakllantirish.

Shuningdek, keys usuli nafaqat o'rgatuvchi, balki tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vosita sifatida ham muhim vazifalarni bajaradi. Quyida esa uning asosiy vazifalari keltirilgan:

- bilimlarni real hayotiy vaziyatlarda qo'llash;
- mustaqil fikrlash va tahlil qilishni shakllantirish;
- muloqot va jamoada ishlash ko'nikmasini rivojlantirish;
- muammoli vaziyatni to'g'ri baholash va qaror qabul qilish;
- o'z tajribasi orqali tahlil qilish imkoniyatini yaratish.

O'qitishning an'anaviy usullaridan farqli o'laroq, keys usuli ta'lim oluvchining faol fikrlash faoliyati, mustaqilligi, o'zaro ta'siri va refleksiyasiga urg'u beradi. U ta'lim oluvchilarga nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlash, balki ularni amaliyotda — real muhitga maksimal yaqinlashtirilgan sharoitlarda qo'llashni o'rganish imkonini beradi.

Muammoli xulq-atvorni boshqarish, bolaning emotsional farovonligini ta'minlash va ijtimoiy moslashuvini rivojlantirishda tarbiyachining strategik yondashuvi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Mazkur yondashuvlar tushunish, kuzatish va oilasi bilan hamkorlik qilish bo'yicha yondashuvlar bir-birini to'ldiruvchi, tahliliy va vaziyatga mos tarzda amalga oshiriladi. Tarbiyachi bu jarayonda o'zining kasbiy sezgirligi, muloqotdagi samaradorligi va tahlil qilish ko'nikmalariga tayanadi. Oila bilan faol hamkorlik esa bolada kuzatiladigan psixologik va ijtimoiy muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Simulyatsiya va keys o'rtasidagi farq:

Simulyatsiya va keys usullari zamonaviy ta'lim texnologiyalarining muhim komponentlari bo'lib, ular o'quvchilar va pedagoglarning faol kognitiv, emotsional va ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Har ikkisi ham real hayotdagi vaziyatlarga asoslangan bo'lsa-da, ularning o'rganish maqsadi, metodik yondashuvi va pedagogik ta'sir doirasi jihatidan sezilarli farqlari mavjud.

Simulyatsion mashg'ulotlar odatda tajriba, refleksiya va xulqiy model shakllantirishga qaratiladi. Keysda ishtirokchilar vaziyatni bevosita boshdan kechirmasdan, uni kuzatish va tahlil qilish orqali faoliyat olib boradilar.

Pedagogik nuqtayi nazardan, simulyatsiya – asosan psixologik sezgirlik, kommunikativ kompetensiyalar, hamda reflektiv malakalarni rivojlantirsa, keys metodi esa – kognitiv salohiyat, huquqiy-anglovi va strategik fikrlash kabi yuqori darajadagi aqliy ko'nikmalarni shakllantiradi.

Xulosa qilib aytganda, bu ikki usul bir-birini to'ldiruvchi uzviy xarakterga ega bo'lib, zamonaviy ta'lim jarayonida ularning uyg'un qo'llanilishi o'quvchilarning har tomonlama kompetensiyalarini shakllantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Pedagogik amaliyotda simulyatsiya va keysni tanlash, asosan, o'quv maqsadi, auditoriyaning tayyorgarlik darajasi va kompetensiyalarga yo'naltirilgan yondashuvga bog'liqdir. Ikkala metod ham o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydi, biroq biri tajriba orqali, ikkinchisi esa muhokama va tahlil orqali o'rgatadi.

II BOB. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING XULQ-ATVORIDAGI QIYINCHILIKLAR: KEYSLAR ASOSIDAGI TAHLIL.

2.1 Vaziyat tavsifi

Katta maktabgacha yoshdagi guruh tarbiyachisi Nodiraxon Soliyeva tomonidan 5 yoshli Azizbekda takroriy ziddiyatli xulq-atvor namoyon bo'layotgani kuzatildi. Bola doimiy ravishda guruh intizomini buzadi, o'yinchoqlarni zo'rlik bilan tortib oladi, tengdoshlariga jismoniy tajovuz ko'rsatadi (turtish, urish), kattalarning ko'rsatmalarini inkor etadi, mashg'ulotlarni izdan chiqaradi va muloqotga kirishishni rad etadi. Eng xavotirli holatlardan biri – bola mashg'ulot vaqtida o'yinchog'ini bermagani uchun guruhdosh qizni urgan.

Voqeadan so'ng tarbiyachi u bilan muloqotga kirishmoqchi bo'lgan, biroq bola qichqirib, burchakka yashiringan va har qanday aloqadan bosh tortgan. Mazkur holatga izoh olish maqsadida bolaning onasi suhbatga taklif etildi. Ona dastlab emotsional tarzda munosabat bildirib, farzandi uyda xotirjam va muammosiz ekanligini ta'kidladi. U bolaning salbiy xatti-harakatlarini boshqa bolalarning turtkisi yoki adolatsiz muomala oqibati deb baholadi. Suhbat davomida u bosqichma-bosqich o'g'lining uy sharoitidagi muayyan xulq-atvori bilan bog'liq kuzatuvlari bilan o'rtoqlasha boshladi.

2.2. Maktabgacha yoshdagi bolada kuzatilgan xulq-atvor qiyinchiliklarining keys asosidagi psixologik-pedagogik tahlili.

Azizbekning xatti-harakatlarini faqat “muammoli” deb hisoblash mumkin emas — bu ichki kechinmalarining ehtimol hissiy tuyg'ulari, vaziyatni nazorat qilish yoki e'tiborga bo'lgan ehtiyojning qondirilmaganligi psixologik signali sifatida baholanishi kerak.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning tajovuzkor xatti-harakati ko'pincha muloqot vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Bu holat, ayniqsa, bolaning og'zaki so'zlashuvi, o'zini boshqarishi yoki empatiya ko'nikmalarini yetarli darajada egallamagan bo'lsa-da, yanada yaqqol ko'zga tashlanadi. Azizbekning nazoratsiz harakatlari va muloqotdan qochish holatlari uning ichki tanglikdan chiqishga bo'lgan ramziy urinishlarini ko'rsatadi. Bunga uning impulsiv reaksiyalari, muloqotdan bosh tortishi va o'zini eshitilmagan, aybdor yoki sarosimaga tushgan vaziyatdan ajralib qolishga ramziy urinish sifatida “o'z olamiga” kirib ketishi ko'rsatishi mumkin. Otaning dastlabki himoyaviy psixologik holati esa tabiiy holat bo'lib, aksariyat ota-onalarda kuzatiladi. Bola uyda xotirjam ko'rinishda ekanligiga qaramay, bu — muammolarning yo'qligidan emas, balki oiladagi muhit o'rtasidagi farqning ifodasidir. Uyda unga ko'proq moslasholadi, holbuki guruh muhitida boladan

umumiy qoidalarga rioya qilish, o'zini nazorat qilish va ijtimoiy moslashuv talab etiladi. Onaning inkordan tahlilga o'tishi muhim pedagogik burilish nuqtasi bo'lib, bu bosqichda ayblash emas, balki o'zaro ishonch va qo'llab-quvvatlash muhitini yaratish orqali muammoni birgalikda hal qilish strategiyasi ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Tarbiyachining kasbiy yondashuvi bolaning xulq-atvoridagi qiyinchiliklarni kuzatish va qayd etish bilan cheklanmaydi balki, u ota-onalar bilan empatik va konstruktiv muloqot o'rnatishga intiladi. Bu esa bolaga murakkab holatlarda hamrohlik qilishning zamonaviy, fanlararo va hamkorlikka asoslangan modeli sifatida aks etadi. Bunday xatti-harakatlar faqat psixologik emas, balki neyropsixologik omillar bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin. Masalan, markaziy asab tizimi yetilmaganligi, emotsional qayta ishlashdagi cheklovlar, DEGS (diqqat yetishmovchiligi va giperaktivlik sindromi), xulq-atvor yoki hissiy rivojlanishdagi buzilishlar turkumidir. Bu holatlar tashxis qo'yish zarur degani emas, biroq bolani pedagog-psixolog, logoped yoki kerak bo'lsa, nevrolog ko'rigiga yo'naltirishni asoslaydi.

Quyidagilarni o'z ichiga olgan bolaning individual kuzatuv rejasini tuzish keysning muhim davomi bo'lishi mumkin:

kunning turli vaqtlarida bolaning xatti-harakatlarini kuzatish;

psixolog bilan maslahatlashish;

emotsional intellektni, kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish uchun o'yinlar va mashg'ulotlarga kiritish;

bolada o'zini o'zi boshqarish ko'nikmalarini bosqichma-bosqich shakllantirish;

ota-onalar bilan ishlash: ma'rifiy ishlar, treninglar, ota-onalar uchrashuvlari.

Xulosa qilib aytganda, Azizbekning holati bolaning xulq-atvori orqasidagi emotsional va ijtimoiy omillarni chuqur tahlil qilish, pedagogik hamkorlikni yo'lga qo'yish va kompleks yondashuvni qo'llash zarurligini ko'rsatadi.

2.3. Vaziyatning taklif etilgan yechimi:

Azizbekdagi ziddiyatli xulq-atvorni bartaraf etish bo'yicha samarali yechim — bu bolaning shaxsiy qadr-qimmatini e'tirof etgan holda, uning individual rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan, ota-ona bilan barqaror hamkorlik o'rnatilgan va psixologik jihatdan qo'llab-quvvatlovchi guruh muhitini shakllantirishga qaratilgan kompleks pedagogik strategiyani ishlab chiqishni talab etadi. Strategiyaning boshlang'ich bosqichi sifatida bolaning xulq-atvori bir necha kun davomida tizimli ravishda kuzatiladi. Ushbu kuzatuv quyidagi jihatlarni aniqlashga xizmat qiladi:

ziddiyatlilik qaysi vaziyatlarda paydo bo'lishi;

muammoli holatlarning ehtimoliy sabablarini (masalan, charchoq, sezgirlik, muloqotdagi qiyinchiliklar, e'tiborsizlik yoki senzitiv stimullarga reaksiya) aniqlash;
bola qanday ijtimoiy va hissiy ehtiyojlarni ifoda etayotganini tushunish.

Kuzatuv natijalari hamkasblar va ota-onalar bilan tahlil qilinishi, bu esa o'z navbatida individual korreksion yondashuvni shakllantirish, pedagogik yordamning yo'nalishini aniqlash, bola rivojiga mos psixo-pedagogik choralarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Keyingi bosqich — ota-onalar bilan konstruktiv va empatik muloqotni yo'lga qo'yishdir. Bu uchun tarbiyachi tomonidan individual uchrashuv tashkil etilishi zarur. Suhbat professional va betaraf ohangda olib borilib, bolaning xulq-atvori bo'yicha kuzatuvlar aniq misollar asosida bayon etilishi, ayblov yoki bosimdan butunlay xoli bo'lishi kerak. Muloqotda muammoni birgalikda hal qilishga intilish va sheriklik ruhini ta'kidlash, pedagogik ittifoqni mustahkamlashga xizmat qiladi. Tarbiyachi bolaning emotsional ehtiyojlarini inobatga olib, unga ruhiy qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratishi lozim. Bolani ijtimoiylashuvga yo'naltiruvchi faoliyat turlariga (ijodiy, rolli, kooperativ o'yinlar) faol jalb qilish, uning o'zini tutish, sabr-toqat, ijtimoiy me'yor va qoidalarni o'zlashtirishiga yordam beradi.

Ijobiy xatti-harakatlarni muntazam kuzatish va rag'batlantirish bolaning o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlab, qabul qilinganlik hissini shakllantiradi. Emotsional barqarorlikni ta'minlashda esa sayr vaqtda yoki sokin muhitda tashkil etilgan shaxsiy suhbatlar muhim vosita hisoblanadi, bu esa bola bilan ishonchli va barqaror aloqa o'rnatishga xizmat qiladi.

“Bola — faqat bilim qabul qiluvchi emas, balki uning qalbida mehr va ilhom olovini uyg'otish lozimdir.”

Bunday yondashuv dialogni hamkorlik formatiga o'tkazishga yordam beradi, bunda pedagog ham, ota-ona ham bola tarbiyasida ittifoqchiga aylanadi.

Strategiyani amalga oshirish bo'yicha asosiy amaliy harakatlar quyidagilardan iborat:

xulq-atvorni tizimli monitoring qilish – bolaning ijtimoiy-emotsional holati va muayyan vaziyatlardagi xatti-harakatlarini muntazam qayd etish hamda tahlil qilish orqali individual yondashuvni belgilash;

pedagogik asoslangan hamkorlik muloqotini yo'lga qo'yish – ota-onalar bilan o'zaro hurmat, empatiya va aniqlik asosida ochiq, konstruktiv muloqot o'rnatish, muammoni bahamjihat hal etishga intilish;

rivojlantiruvchi faoliyatga jalb qilish – bolada o‘z-o‘zini nazorat qilish, ijobiy ijtimoiy munosabatlar va empatiyani shakllantirishga yo‘naltirilgan o‘yin, muloqot va interaktiv metodlardan foydalanish;

emotsional xavfsizlikni ta‘minlash – ta‘lim muhitida qabul qilinganlik hissi, ishonch va psixologik farovonlikni mustahkamlovchi individual yondashuv va hissiy qo‘llab-quvvatlovni yo‘lga qo‘yish.

2.4. Emotsional va ijtimoiy intellekt ko‘nikmalarini o‘rgatish.

Zamonaviy ta‘lim jarayonida bolalarning emotsional va ijtimoiy intellektini shakllantirish muhim pedagogik ustuvorliklardan biri sanaladi. Bu yo‘nalishda ijtimoiy-emotsional ta‘lim (Social and Emotional Learning — SEL) metodikalarini joriy etish orqali bolalarda hayotiy kompetensiyalarni rivojlantirish ko‘zda tutilmoqda. SEL modeli yetakchi xalqaro tashkilot CASEL² (Collaborative for Academic, Social, and Emotional Learning) tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, o‘z-o‘zini anglash, o‘zini boshqarish, ijtimoiy xabardorlik, munosabatlarni rivojlantirish va mas‘uliyatli qarorlar qabul qilish kabi kompetensiyalarni qamrab oladi.

Bu kompetensiyalar bolaning o‘z his-tuyg‘ularini boshqarish, boshqalar bilan empatiyali munosabat o‘rnatish, ijtimoiy rollarni to‘g‘ri anglash, muloqot madaniyatini shakllantirish va axloqiy tanlovlar qilish salohiyatini mustahkamlaydi. Emotsional va ijtimoiy intellektni rivojlantirish nafaqat bolalar, balki ota-onalar va mahalla jamoatchiligini ham o‘quv jarayoniga jalb etishni nazarda tutadi.

Mazkur tashabbusni amaliyotga tatbiq etish uchun Qori Niyoziy nomidagi Milliy tarbiya pedagogikasi instituti huzurida milliy va xorijiy mutaxassislardan iborat trenerlar guruhi shakllantiriladi³. Institut ushbu metodikalarni joriy etishning samaradorligini doimiy ravishda monitoring qilib boradi, aniqlangan muammolarni bartaraf etish uchun tahliliy va korreksion chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

Bunday tizimli yondashuv bolalarning ijtimoiy-emotsional salohiyatini rivojlantirishda ta‘lim muassasalari, oilalar va jamoatchilik o‘rtasida uyg‘un hamkorlikni yo‘lga qo‘yadi hamda ta‘limning sifat ko‘rsatkichlarini yangi bosqichga olib chiqadi.

Nima uchun bu muhim?

Maktabgacha yoshdagi bolalar emotsiyalarini to‘g‘ri va xavfsiz tarzda ifoda etishni har doim ham bilmaydilar, ayniqsa, agar oilaviy muhitda bu boradagi ko‘nikmalar shakllantirilmagan bo‘lsa. Emotsional savodxonlik — bu bolaning ichki holatini tushunish,

² <https://casel.org/fundamentals-of-sel/what-is-the-casel-framework/>

³ <https://lex.uz/docs/6981166>

uni tan olish va mos ravishda ifoda etishga o'rgatuvchi muhim ijtimoiy-emotsional kompetensiyadir. Bu ko'nikmalar bolaning o'zini anglashi, boshqalar bilan empatik aloqalar o'rnatishi va ijtimoiy muhitga moslashuvi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Nima qilish mumkin?

Bolalarda emotsional intellektni rivojlantirish uchun kundalik pedagogik amaliyotda quyidagi faoliyat turlarini qo'llash tavsiya etiladi:

Bolaning his-tuyg'ularini aniqlash va tartibga solish qobiliyatini shakllantirish maqsadida "Men nimani his qilyapman?", "Emotsiyalar termometri" kabi o'yinlar, shuningdek, "Sokin burchak" faoliyatini joriy etish. Bu joyda bola yolg'izlikda tinchlanish va emotsiyalarini tartibga solish imkoniga ega bo'ladi.

Kuchli emotsional kontekstga ega bo'lgan badiiy adabiyotlarni tanlash va ularni muhokama qilish: masalan, "Men g'azablanganimda", "Sichqoncha Tim do'st bo'lishni o'rganmoqda" kabi bolalar uchun mos kitoblar orqali emotsiyalar haqida suhbatlar olib borish.

Bola o'z his-tuyg'ularini kattalarga yetkazishi uchun individual "emotsiyalar kartochkasi"ni ishlab chiqish. Bu vizual vosita bolaga o'z holatini ifodalashni o'rganishda yordam beradi, ayniqsa hali og'zaki nutqi rivojlanmagan yoki emotsiyalarni aniqlashda qiynalayotgan bolalar uchun foydalidir.

Ta'lim jarayonida bolaning ahamiyati haqida:

Bola — oddiygina tarbiya oluvchi emas, balki tarbiya jarayonining faol ishtirokchisi. U ta'lim tashkilotiga o'zining ichki dunyosi, fe'l-atvori, his-tuyg'ulari va ehtiyojlari bilan kirib keladi. Ba'zida bolalar o'z kechinmalarini so'z bilan ifodalay olmaydi, shu sababli ular xatti-harakatlari orqali ichki holatini bildirishga harakat qiladi. Ayniqsa, maktabgacha yosh davrida emotsiyalarini boshqarish va ifodalash ko'nikmalari endi shakllanayotgan bo'ladi. Shuning uchun "ijtimoiy-emosional ehtiyoji yuqori" deb baholash o'rniga, u yordamga muhtoj bo'lgan ichki holatini ifodalayotganini tushunish muhimdir.

Bolaning muhimligini ta'kidlaydigan asosiy tamoyillar:

Har bir bola shaxs sifatida qadrlanishi lozim. Bola qanday holatda bo'lmasin — emotsional beqarorlik, inijlik yoki ijtimoiy yopiq holatni namoyon etsa ham — bu uni rad etish emas, balki qo'llab-quvvatlash zaruriyatiga ishora qiladi. Tarbiyaviy yondashuv bolaning shaxsiy fazilatlarini inobatga olgan holda, unga ishonch, xavfsizlik va qabul qilinganlik hissini berishi kerak.

Xulq-atvor — bu bolaning ichki holatini ifodalovchi kommunikativ vositadir. Bola o'z xatti-harakatlari orqali muloqot qiladi: agar u tursa, baqirsa yoki rad etsa — bu faqat tartib buzilishi emas, balki ichki ehtiyoj yoki hissiy holatning ifodasidir. Muhim vazifa – uni faqat to'xtatish emas, balki bu xatti-harakatlar ortidagi sabablarni aniqlab, tushunishga harakat qilishdir.

Bolaning rivojlanishi munosabatlar sifati bilan bevosita bog'liq. U ijtimoiy va emotsional ko'nikmalarni aynan kattalar va tengdoshlar bilan bo'lgan o'zaro ta'sir jarayonida o'zlashtiradi. Agar muhitda ishonch bo'lmasa, bola o'zini xavfsiz his qilmaydi, bu esa o'zini boshqarish, empatiya va mustaqil harakat qilish salohiyatining shakllanishiga to'sqinlik qiladi.

Muammoning o'zida o'sish imkoniyati mavjud. Bola hozirda impulsiv yoki ziddiyatli xatti-harakatlar namoyon etayotgan bo'lishi — bu yakuniy baho emas, balki tarbiyaviy va psixologik hamrohlik uchun boshlang'ich nuqtadir. Doimiy e'tibor, emotsional qo'llab-quvvatlash va individual yondashuv orqali har bir bolada ijobiy o'zgarishlar yuzaga chiqish imkoniyati mavjud.

Bola — bu mustaqil shaxs. Bolani “qiyinalayotgan bola” deb baholash o'rniga, “u hozir qiyinchilikni boshdan kechiryapti” deb qarash lozim. Bunday yondashuv bolaga hamdardlik bilan yondashishga, ota-onalar bilan hurmatli va ochiq muloqot muhitini yaratishga xizmat qiladi.

Qo'llab-quvvatlash — eng kuchli tarbiyaviy vosita. Jazo muammoni vaqtincha to'xtatishi mumkin, ammo uning ildiziga yetmaydi. Emotsional qo'llab-quvvatlash, ishonchli muloqot va aniq chegaralar esa bolaga o'z his-tuyg'ularini anglash va xatti-harakatlarini boshqarishni o'rgatadi.

Qabul qilingan qarorlar natijasida kutilayotgan o'zgarishlar:

Bola emotsiyalarini ifoda etishning ijobiy va xavfsiz shakllarini o'rganadi.

Tarbiyachi va ota-onalar o'rtasida o'zaro ishonch va ochiq muloqot rivojlanadi.

Ta'lim tashkiloti bilan oila o'rtasidagi hamkorlik mustahkamlanadi.

Ijtimoiy va emotsional muhit yaxshilanadi, ijobiy munosabatlar faollashadi.

Ziddiyatli yoki muammoli xatti-harakatlarni namoyon etayotgan maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda tarbiyachilar, ota-onalar va mutaxassislar tomonidan yuqori sezgirlik, sabr-toqat hamda kompleks yondashuvni talab etadi. Azizbekning xatti-harakatlari pedagogik murakkablikdan ko'ra ko'proq ichki notinchlik to'g'risidagi ogohlantiruvchi belgi sifatida talqin qilinishi lozim. Maktabgacha yoshdagi bolalarda tajovuzkorlik ko'pincha boshqarilmagan emotsiyalarni ifodalash shakli sifatida namoyon bo'ladi. Bu holat bolaning his-tuyg'ularini og'zaki ifoda etish, o'zini boshqarish yoki ijtimoiy muloqotda yetarli ko'nikmalarga ega emasligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Bunday vaziyatlarni samarali hal etishda bolaning xulq-atvori ortidagi sabablarni o'z vaqtida aniqlash hamda maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila o'rtasidagi uzviy hamkorlik hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ota-onalar tarbiyachi tomonidan bildirilgan kuzatuv va mulohazalarni tanqid emas, balki bolaning emotsional va ijtimoiy rivojlanishiga ko'maklashuvchi salohiyatli imkoniyat sifatida qabul qilishlari muhimdir. Tarbiyachi va ota-onalar o'rtasida shakllanadigan ishonchli muloqot, ochiqlik va hamkorlik muhitida ota-onalar boladagi his-tuyg'ular va xatti-harakatlarning sabablarini anglash imkoniga ega bo'ladilar. Bu esa ularning tarbiyaviy jarayonda faol subyekt sifatida ishtirok etishlariga zamin yaratadi. Tarbiyachining zo'ravonliksiz muloqot tamoyillariga asoslangan pedagogik yondashuvi, hamdardlik ko'nikmalari va emotsional sezgirligi natijasida guruhda bolaning o'zini qabul qilingan, tushunilgan va himoyalangan holda his qiladigan ijobiy ijtimoiy-psixologik muhit shakllanadi. Bu esa bolaning o'z emotsiyalarini boshqarish va atrofdagilar bilan sog'lom munosabatni o'rnatish malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Biroq shuni yodda tutish zarurki, bolaning xulq-atvorini o'zgartirish bu bir zumda erishiladigan natija emas, balki vaqt, izchillik va tizimli yondashuvni talab qiladigan murakkab jarayondir. Bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun bolaning shaxsiy ehtiyojlari, rivojlanish darajasi hamda oilaviy sharoitlarini hisobga olgan holda individual tarzda qo'llab-quvvatlash strategiyalarini ishlab chiqish lozim. Bunda amalga oshirilayotgan pedagogik choralarni muntazam tahlil qilish, zarurat tug'ilganda ularni moslashtirish va takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

Azizbek misolida kuzatilgan holat pedagoglar va ota-onalarning o'zaro hamkorligi orqali bola xulqidagi qiyinchiliklarni yengish, unda ichki ishonchni shakllantirish va ijtimoiy muhitga moslashuvchan tarzda qo'shilishiga ko'maklashish mumkinligini yaqqol namoyon qiladi. Bunday tajriba bola shaxsining emotsional farovonligi, barkamol kamol topishi va sog'lom ijtimoiy rivojlanishiga xizmat qiluvchi muhim omil sifatida e'tirof etilishi mumkin.

III bob. SIMULYATSIYA: MAKTAB SHAROITIDA O'SMIRLARNING EMOTSIONAL VA XULQ-ATVOR QIYINCHILIKLARI

3.1. O'smirlar davrida xulq-atvor qiyinchiliklari: muammo va dolzarb yondashuvlar.

7-“B” sinf rahbari Shahnoza Abdullayevna tomonidan kuzatilgan vaziyat o'quvchi — 13 yoshli Dilnozaning emotsional holati va ijtimoiy xulq-atvoridagi sezilarli o'zgarishlar bilan bog'liq. So'nggi ikki oy ichida u ancha loqayd bo'lib qolgan, sinfdagi ijtimoiy faoliyatlardan o'zini chetga tortmoqda, dars jarayonida esa tushkun va befarq kayfiyatda ishtirok etmoqda. Dilnozaning sinfdan chekinishi, befarqligi, darslarga loqayd munosabati va kayfiyatining beqarorligi, ularning barchasi ichki emotsional nomutanosiblik yoki o'zaro munosabatlardagi muammolar belgisi sifatida qaralishi kerak.

Bunday xatti-harakatlar ko'pincha o'smirning ichki kechinmalari, tushkunlik yoki e'tiborga ehtiyoji borligidan darak beradi. Balki u uyda yoki do'stlar orasida tushunilmayotgandir. O'smirlar ba'zida og'zaki ayta olmaydigan his-tuyg'ularini aynan harakatlari orqali namoyon qilishadi. Shuning uchun Dilnozaning holatiga faqat “qoidabuzarlik” sifatida emas, balki yordam so'rovi sifatida qarash muhim. O'qituvchining holatni erta sezgani — juda muhim. Endi esa bu holatga ota-onalar va psixolog bilan birgalikda yondashish, Dilnozaga yordam berish yo'llarini izlash kerak. Muhimi — uni ayblamasdan, tushunishga harakat qilishdir.

Simulyatsiya maqsadi:

O'smirda emotsional tushkunlik va beqarorlikning dastlabki belgilari bo'lgan loqaydlik, o'zini chetga olish, keskin javoblar, befarqlikni aniqlashni o'rganish.

Muammoli holatni e'tirof etmaydigan ota-ona bilan ishonchli va anonim suhbat yuritishni rivojlantirish.

Ijobiy va qarshiliksiz qabul qilinadigan shaklda taklif qilishni mashq qilish.

Ta'lim tashkilotidagi o'smirlarning hissiy muvozanatini ta'minlash, noto'g'ri moslashuv va depressiv holatlarning oldini olishdagi roli va mas'uliyatini anglash.

Simulyatsiya ishtirokchilari

Sinf rahbari: Shahnoza Abdullayevna
Ota-onasi: Kamola Rahmatovna (Dilnozaning onasi)
O'smir: Dilnoza, 13 yosh
Maktab pedagog psixologi: Sayyora Jamshidovna

Simulyatsiya ssenariysi:

1. Sinf rahbari:

Dilnozaning xatti-harakatlari bo'yicha kuzatuvlari bilan o'rtoqlashadi: kayfiyatidagi o'zgarishlar, sinf hayotida ishtiroki, xavotirli fikrlar. "Biz yordam bermoqchimiz," "Bizga Dilnozaning o'zini xavfsiz his qilishi muhim," — deya muloyimlik bilan, ayblovsiz xavotir bildiradi. Qizning uyda o'zini qanday tutishini haqida so'raydi va ota-onasi bilan aloqa o'rnatishga harakat qiladi.

2. Ona (Kamola Rahmatovna):

Avvaliga "hammasi joyida," "qizim injiqlik qilyapti," deb o'zini himoya qiladi. Keyinchalik, xotirjam va hurmat asosidagi suhbatda esa qizning otasi boshqa shaharga ketganini, tez-tez ish bilan bandligini, uyda qizi bilan kam muloqot qilishini, telefon bilan ko'p mashg'ul bo'lishini, odamovi bo'lib qolganini aytadi.

3. Pedagogning vazifasi:

o'quvchi va ota-onalar bilan tazyiqsiz, ishonchli muloqot o'rnatish;

o'smirning holatini tushunishga yo'naltirilgan empatik yondashuvni qo'llash;

emotsional xavf signallarini e'tibordan chetda qoldirmaslik lozimligini muloyimlik bilan tushuntirish, muammoni inkor etishning oqibatlarini izohlash.

Yordam choralarini taklif qilishda maktab psixologi bilan ishlash, o'quv jarayonida individual yondashuvni yo'lga qo'yish, sinfdan tashqari faoliyatlarga jalb etish orqali o'quvchining ishonch va qabul hissini mustahkamlash.

4. Maktab psixologi:

O'smirlik davrida hissiy buzilishlar ko'pincha yashirin kechadi va bevosita so'zlarda emas, balki xatti-harakatlar orqali ifodalanadi. Bu holatni erta aniqlash va to'g'ri yondashuv muhim ahamiyatga ega.

Psixolog esa ota-ona va sinf rahbariga quyidagilarni tavsiya qiladi: bolani ortiqcha ayblovlarsiz, bosimsiz qo'llab-quvvatlash, uning his-tuyg'ularini anglashga harakat qilish va suhbat davomida muloyim, ishonchli munosabatni saqlash. Shuningdek, o'quvchining emotsional holatini yengillashtirish uchun psixologik yordam mexanizmlarini taklif qiladi: masalan, individual suhbatlar, ijobiy faoliyatga yo'naltirish, sinfdan tashqari ishtirokni rag'batlantirish.

Shakllantiriladigan ko'nikmalar:

ota-ona bilan ishonchli muloqot o'rnatish.

o'smirlarda psixologik nosog'lomlik belgilarini erta aniqlash.

emotsional jihatdan murakkab vaziyatlarda professional tarzda harakat qilish qobiliyati.

maktab va oila hamkorligi.

3.2 O'smirni kompleks psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash.

Sinf rahbari Shahnoza Abdullayevna Dilnozaning xatti-harakatlaridagi o'zgarishlardan so'ng, muammoni hal qilishda izchil va tizimli yondashuv zarurligini anglaydi. Dilnozada emotsional zo'riqish, yolg'izlanish va o'qishdagi qiyinchiliklar kabi belgilar kuzatilmoqda. Bu holat murakkab aralashuvni, ya'ni pedagog, psixolog va ota-onaning hamkorligini talab qiladi.

Shahnoza Abdullayevna holatni chuqurroq o'rganish, xavf darajasini aniqlash va to'g'ri yo'nalish belgilash uchun maktab psixologi Sayyora Jamshidovna bilan maslahatlashish tashabbusi bilan chiqmoqda. Muloqot jarayoni esa amaldagi psixologik-pedagogik kuzatuv tartib-qoidalari inobatga olinadi. Bunday yondashuv o'quvchining emotsional barqarorligini ta'minlash, o'zini xavfsiz va tushunilgan his qilishiga zamin yaratishga xizmat qiladi.

Psixolog maslahati:

Sinf rahbarining kuzatuvlari asosida maktab psixologi Sayyora Jamshidovna vaziyatni chuqur tahlil qiladi. U quyidagi muhim jihatlarga alohida e'tibor qaratadi:

Dilnozaning xulq-atvori, ijtimoiy faolligi va tashqi ko'rinishidagi keskin o'zgarishlar; insho matnida uchragan xavotirli ibora: "Menga baribir, men baribir hech kimga kerak emasman";

muloqotdan qochish, muloqotdan chetlashish, asabiy reaksiyalar;

oilaviy holat ya'ni ota-onaning ajralishi va onaning mehrsiz munosabati.

Bu kabi belgilar o'smirda hissiy beqarorlik va ichki iztirob mavjudligidan dalolat beradi. Psixolog holatni baholagan holda, bola bilan ehtiyotkor va ishonchli muloqot o'rnatish, psixologik qo'llab-quvvatlash bo'yicha individual reja ishlab chiqishni tavsiya etadi.

Psixolog xulosasi:

To'plangan ma'lumotlarni har tomonlama tahlil qilgan maktab psixologi Sayyora Jamshidovnaning fikriga ko'ra, Dilnozada kuchli emotsional beqarorlik belgilari kuzatilmoqda. Bunday holat o'quvchining hissiy muvozanatini izdan chiqishi va ijtimoiy hayotga moslashuvdagi qiyinchiliklarda namoyon bo'ladi. Xususan, xavotirning kuchayishi, kayfiyatning keskin o'zgarib turishi, yolg'izlik va tushunarsizlik hissi, o'qishga bo'lgan ishtiyoqning pasayishi, ijtimoiy faollikning kamayishi kabi alomatlar yaqqol ko'rinmoqda.

Psixolog, ayniqsa, insho matnida uchragan "Menga baribir, men hech kimga kerak emasman" jumlasiga alohida e'tibor qaratadi. Bu ibora o'quvchining ichki ziddiyatlari, o'ziga bo'lgan ishonchning pasayishi va ehtimoliy yashirin depressiyadan dalolat berishi

mumkin. Ushbu holat beparvolik, o'zini chetga olish, uyqu va ishtahaning buzilishi, diqqatni jamlay olmaslik, qaror qabul qilishdagi qiyinchiliklar bilan kechadi. Bu belgilar vaqtinchalik ruhiy siqilishdan ko'ra jiddiyoq muammoni anglatadi va kompleks yondashuvni talab qiladi.

Psixologning fikricha, bunday vaziyatlar o'z-o'zidan tuzalib ketmaydi. Zaruriy professional yordam, ota-ona va pedagoglarning faol ishtiroki asosida yo'lga qo'yiladigan doimiy, izchil va nozik yondashuv talab etiladi. Bu esa qizning emotsional sog'lig'ini tiklash va ijtimoiy muhitda faol ishtirokini ta'minlash imkonini beradi. Shuni ham unutmaslik kerakki, o'smirlardagi bunday uzilishlar odatda oilaviy ziddiyatlar va ajralish kechinmalari, o'quv yuklamasining ortishi, fiziologik va yoshga xos o'zgarishlar kabi omillar bilan bog'liq. Shu bois psixologik-pedagogik yordam bir yoqlama emas, balki ko'p darajali va tizimli bo'lishi zarur. Har bir qatnashuvchi ya'ni pedagog, psixolog, ota-ona bir-birlarini to'ldirib hamkorlikda ishlashi kerak.

Psixolog Sayyora Jamshidovnaning yakuniy xulosasiga ko'ra, muammoni faqat individual tarzda hal qilish yetarli emas. Dilnozaga yordam berish uchun maktab jamoasi, psixolog va oila o'rtasidagi muvofiqlashtirilgan jamoaviy yondashuv zarur.

“Har bir bola — bu butun bir olam va bizning vazifamiz unga rivojlanishiga yordam berish, qiyin vaqtlarda qo'llab-quvvatlash va yolg'iz emasligini his qildirishdir.”

Shu munosabat bilan sinf rahbari Shaxnoza Abdullayevna maktabning qo'llab-quvvatlash guruhini yig'ishga tashabbus ko'rsatdi. Yig'ilishda barcha asosiy mutaxassislar — maktab psixologi, tarbiyaviy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari, fan o'qituvchilari ishtirok etadi. Mazkur uchrashuvda o'quvchiga nisbatan individual yondashuvni shakllantirish, psixologik bosimni kamaytirish, ijtimoiy moslashuvni yengillashtirish va o'qishga bo'lgan ijobiy motivatsiyani tiklash bo'yicha aniq strategiyalar ishlab chiqiladi.

Dilnozani individual qo'llab-quvvatlay oladigan pedagog-murabbiyni tayinlash, shuningdek, oilada o'zaro tushunish va emotsional aloqani yaxshilash uchun qizning onasi — Kamola Rahmatovna bilan muntazam psixologik qo'llab-quvvatlashni yo'lga qo'yish va ular bilan ishlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Shunday qilib, psixolog tashxisi va jamoaviy rejalashtirish o'rtasidagi tavsiflangan bog'liqlik fanlararo yondashuvning muhimligini ta'kidlash va o'smirlarga hamrohlik qilish ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarining kelishilgan sa'y-harakatlarini talab qiladigan uzoq va murakkab jarayon ekanligini ko'rsatish imkonini beradi.

Maktab kuzatuv kengashi yig'ilishi.

Uchrashuvda quyidagilar ishtirok etadi:

Shahnoza Abdullayevna — sinf rahbari;

Sayyora Jamshidovna — maktab psixologi;

Dilorom Majidovna — tarbiyaviy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari
fan o'qituvchilari.

Quyidagi chora-tadbirlar muhokama qilinmoqda:

O'quv yuklamasini moslashtirish: Dilnozaning holatini inobatga olgan holda, ayrim fanlar bo'yicha baholash talablari vaqtincha yumshatiladi. Bu unga o'ziga ishonchni tiklash va haddan tashqari zo'riqishning oldini olish imkonini beradi.

Muvaffaqiyat vaziyatini yaratish: Qizning ijtimoiy faolligi va o'zini ifoda etishiga sharoit yaratish maqsadida, ijodiy topshiriqlar (masalan, hikoyaga rasm chizish, musiqa ijrosi, tanlovsiz loyiha ishtiroki) orqali qo'llab-quvvatlash rejalashtirilmoqda.

Pedagog-murabbiy tayinlash: Dilnozaga individual tarzda yordam beradigan, u ishonch bildiradigan va o'ziga yaqin deb his qiladigan pedagog tayinlanadi. Bu pedagog murabbiy rolini bajarar ekan, qizning ijtimoiy va emotsional rivojlanishini monitoring qilib boradi.

Psixologik yordam ko'rsatish: Maktab psixologi Dilnoza bilan muntazam individual suhbatlar tashkil etadi. Bu suhbatlar emotsional barqarorlikni tiklash va o'zini anglash jarayonlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan.

Ota-ona bilan hamkorlik: Psixolog Kamola Rahmatovna bilan muntazam aloqa davom ettirilmoqda. U ota-onaga Dilnozaning ichki kechinmalarini chuqurroq tushunishga yordam bermoqda hamda hissiy jihatdan mos yondashuv usullarini o'rgatmoqda.

Harakatlar rejasi muhokama qilinib, kelishilgach, psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash tadbirlarini amaliyotga joriy etish bosqichi boshlanadi. Bu bosqichda sinf rahbari va tayinlangan pedagog birgalikda Dilnozaning o'quv jarayoniga va maktab muhitiga moslashuvini muntazam kuzatib boradi. Fan o'qituvchilari esa didaktik talablarni vaqtincha yengillashtirgan holda, o'smirning ortiqcha zo'riqmasdan o'zlashtirishi uchun qulay sharoit yaratadilar.

Maktab psixologi Dilnoza bilan shaxsiy uchrashuvlarni davom ettirib, unda sog'lom emotsional reaksiyalarni rivojlantirish, o'zini boshqarish va ichki ishonchni mustahkamlashga qaratilgan mashg'ulotlar olib boradi. Qo'llab-quvvatlashning muhim tarkibiy qismi sifatida oilaning faol ishtiroki ta'minlanadi: psixolog qizning onasi Kamola Rahmatovna bilan suhbatlar o'tkazib, unga empatiya, emotsional sezgirlik va konstruktiv

muloqot ko'nikmalarini shakllantirishda metodik yordam ko'rsatadi. Bu yondashuv uy sharoitida barqaror va iliq muhitni yaratishga xizmat qiladi.

Belgilangan muddat yakunida kuzatuv guruhi yana yig'ilib, Dilnozaning emotsional holati, ijtimoiy faolligi va o'quv jarayonidagi o'zgarishlarni tahlil qiladi. Zaruriyat tug'ilganda, qo'llab-quvvatlash rejasiga o'smirning yangilangan ehtiyojlarini inobatga olgan holda tegishli tuzatishlar kiritiladi. Umuman olganda, kompleks yondashuv asosida tashkil etilgan psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash tizimi Dilnozaning emotsional farovonligini tiklash, maktab jamoasida ijobiy ijtimoiylashuvini ta'minlash hamda shaxsiy rivojlanishi uchun zarur psixologik muhitni yaratishga xizmat qiladi.

Simulyatsiyaning maqsadi.

Mazkur simulyatsiyaning asosiy maqsadi – O'zbekiston Respublikasining amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlariga tayangan holda, maktab sharoitida emotsional beqarorlik va ijtimoiy izolyatsiya belgilari kuzatilayotgan o'smirni kompleks psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash jarayonini bosqichma-bosqich namoyish etishdir. Ushbu simulyatsiya orqali pedagoglarning tizimli kuzatuv ma'lumotlari, maktab psixologi bilan o'tkazilgan suhbat va test natijalari asosida o'quvchining emotsional holatini aniqlash, baholash va tahlil qilish, shuningdek, ota-ona, sinf rahbari, psixolog va maktab ma'muriyati ishtirokida fanlararo hamkorlik guruhini shakllantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Bu guruh o'smirning individual ehtiyojlari, shaxsiy xususiyatlari va ijtimoiy muhitini inobatga olgan holda qo'llab-quvvatlash strategiyasini ishlab chiqadi. Jarayonda kuzatuvchi mutaxassislar o'rtasida ishonchli, ochiq va samarali muloqotni yo'lga qo'yish muhim hisoblanadi.

Simulyatsiyaning asosiy yo'nalishi nafaqat mavjud muammolarni bartaraf etish, balki o'quvchining psixologik salomatligini tiklash, o'ziga bo'lgan ishonchini oshirish, ijtimoiy muhitga muvaffaqiyatli moslashuvini ta'minlash va o'quv motivatsiyasini kuchaytirishga qaratilgan.

Simulyatsiya yakunida:

pedagog va psixologlar o'quvchilardagi emotsional va ijtimoiy qiyinchiliklarni erta aniqlashga oid bilim va malakalarini mustahkamlaydi;

amaldagi davlat talablari va standartlariga mos ravishda zamonaviy qo'llab-quvvatlash vositalari va yondashuvlarini amaliyotda qo'llashni o'rganadi.

Shu tariqa, simulyatsiya maktab ta'limi ishtirokchilari uchun qulay va xavfsiz muhit yaratish, o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish hamda davlat ta'lim siyosatini hayotga tatbiq etishda amaliy vosita bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu Simulyatsiyaning maqsadi O'zbekiston Respublikasining amaldagi me'yoriy-huquqiy bazasini hisobga olgan holda maktab ta'lim muhiti sharoitida emotsional beqarorlik va ijtimoiy izolyatsiya belgilarini namoyon qiladigan o'smirning kompleks psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlashni tashkil etish hamda amalga oshirish jarayonini batafsil namoyish etishdir. Simulyatsiya jarayonida pedagoglarning tizimli kuzatuvlari, maktab psixologi tomonidan o'tkazilgan suhbat va test natijalariga tayangan holda o'quvchining emotsional holatini izchil aniqlash, tashxislash va chuqur tahlil qilishga alohida e'tibor qaratiladi. Bundan tashqari, jarayonda sinf rahbari, maktab psixologi, ta'lim muassasasi ma'muriyati va bolaning ota-onalarini o'z ichiga olgan fanlararo hamrohlik jamoasini yaratish va muvofiqlashtirish ko'rib chiqiladi. Ushbu jamoa birgalikda o'smirning shaxsiy xususiyatlari, uning ta'lim ehtiyojlari va ijtimoiy kontekstini hisobga olgan holda individual qo'llab-quvvatlash dasturini ishlab chiqadi. Bolani maksimal darajada samarali qo'llab-quvvatlashni ta'minlash uchun kuzatuv ishtirokchilari o'rtasida ishonchli va konstruktiv aloqalarni o'rnatishga alohida e'tibor qaratiladi.

Simulyatsiyaning muhim jihati shundaki, u nafaqat hozirgi emotsional va xulq-atvor muammolarini aniqlab, ularni bartaraf etishga xizmat qiladi, balki o'quvchining psixologik holatini tiklash, uning ijtimoiy muhitga muvaffaqiyatli moslashuvi, o'quvga bo'lgan qiziqishini oshirish va umuman hayot sifatini yaxshilashga qaratilgan tizimli, kompleks va uzoq muddatli yondashuvni namoyish etadi.

Simulyatsiya jarayonida ishtirok etgan pedagog va psixologlar bolalardagi emotsional va ijtimoiy qiyinchiliklarni erta aniqlash, davlat standartlari va normativ talablariga muvofiq zamonaviy psixologik-pedagogik yondashuvlardan foydalangan holda qo'llab-quvvatlashni tashkil etish bo'yicha o'z kasbiy bilim va malakalarini rivojlantiradilar. Natijada, bu simulyatsiya o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishi, ta'lim va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash borasida davlat siyosatini amaliyotga tatbiq etishi hamda maktabda sog'lom psixologik muhitni shakllantirish uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Simulyatsiyadan keyingi vazifa (pedagoglar uchun):

Dilnozani kuzatib borish rejasini keyingi oy uchun tuzing (o'qituvchi, psixolog, ota-onalar roli, qo'llab-quvvatlash shakllarini kiriting).

Qizda qanday xavf va himoya omillari borligini aniqlang.

Bunday vaziyatda pedagog qanday xatolarga yo'l qo'yishi mumkinligini yozing (masalan, bosim o'tkazish, e'tiborsiz qoldirish, boshqalar bilan taqqoslash).

3.3 O'zgarishlar dinamikasi va kuzatib borish rejasini amalga oshirish

Qo'llab-quvvatlash rejasini kelishib olingach, maktab jamoasi uning bosqichma-bosqich amalga oshirilishiga kirishadi. Sinf rahbari, maktab psixologi va fan o'qituvchilari o'quvchining emotsional holati va xulq-atvoridagi o'zgarishlarni tizimli ravishda kuzatib boradilar. Kuzatuv jarayonida ayniqsa motivatsiyani tiklash, ishonchli aloqa o'rnatish, ijtimoiy faoliyatga jalb qilish hamda o'quv yuklamasini moslashtirish kabilarga e'tibor qaratiladi.

Psixolog muntazam ravishda individual suhbatlar tashkil etadi. Bu suhbatlar davomida Dilnoza his-tuyg'ularini erkin ifoda eta boshlaydi, fikr bildirishga tayyorlik bildiradi va faol tinglovchi pozitsiyasidan tashabbus ko'rsatuvchi pozitsiyaga o'ta boshlaydi. U ijodiy faoliyat orqali o'zini anglashga harakat qilib devoriy gazeta tayyorlashda qatnashadi, rasm chizishga qiziqadi va musobaqasiz maktab tadbirlarini tayyorlashda faol ishtirok etadi.

Fan o'qituvchilari o'quv yuklamasini kuzatib yozma nazorat ishlari o'rniga og'zaki savol-javoblar taklif etiladi, topshiriqlarni topshirish muddati uzaytiriladi. Bu holat o'quvchining psixologik bosimini kamaytirish, stressni oldini olish va ijobiy o'quv tajribasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Oilaning ishtiroki ham muhim o'rin tutadi. Dilnozaning onasi – Kamola Rahmatovna psixologik maslahat uchrashuvlarida faol ishtirok etadi, u yerda faol tinglash, emotsional qo'llab-quvvatlash va farzand bilan sog'lom muloqot yuritish ko'nikmalarini o'zlashtiradi. Uyda ijobiy muhitni shakllantirish bo'yicha maslahatlar bosqichma-bosqich hayotga tatbiq etiladi.

Bir oydan so'ng dastlabki ijobiy o'zgarishlar kuzatiladi: Dilnoza ko'proq tabassum qiladi, sinfdoshlari bilan muloqotdan qochmaydi, ayrim mavzularga nisbatan qiziqish bildiradi va o'quv jarayoniga jalb etilganlik darajasi ortadi.

Shunday qilib, tizimli yondashuv jamoaviy hamkorlik, oilaviy ishtirok va individual psixologik yordam orqali o'smirning emotsional tiklanishi va maktab hayotiga muvaffaqiyatli moslashuvi uchun barqaror asos yaratadi.

Pedagog refleksiya va hamkorlik samaradorligini baholash.

So'nggi bir oy davomida Shahnoza Abdullayevna uchun bu jarayon muhim kasbiy o'sish tajribasiga aylandi. U o'z kuzatuvlari orqali o'quvchining emotsional holatini barqarorlashtirishda faqat akademik natijalarga emas, balki shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, empatiya va faol tinglash kabi muhim xulosalarga keldi. O'smir va uning ota-

onasi bilan ishonchli muloqot o'rnatish, sinfdagi ijtimoiy muhitni yumshoq tarzda tartibga solish pedagogik faoliyatning muhim jihatlaridan biri ekanligini chuqur his etdi.

Refleksiya jarayonida Shahnoza Abdullayevna quyidagilarni ta'kidlaydi:

Dilnozaning muloqotdagi o'zgarishlari: u his-tuyg'ularini ifodalashda ochiqroq bo'ldi, o'qituvchilar bilan muloqotdan chekinmayapti, sinf hayotida faolroq ishtirok etmoqda.

Ota-onaning pozitsiyasi: onasi maktab bilan yanada faol hamkorlik qila boshladi. U faqat baholarga emas, balki farzandining emotsional holatiga ham jiddiy e'tibor bera boshladi.

Pedagogik jamoaning yondashuvi: hamkasblari moslashuvchanlik va sabr-toqat ko'rsatdi. Ular o'quvchidan tezkor natija kutmadi, vazifalarni bajarish muddatlariga nisbatan individual yondashdi va uni rag'batlantirib borishdi.

Ushbu tajriba pedagogik amaliyotda individual yondashuvning, jamoaviy hamkorlikning va emotsional qo'llab-quvvatlashning o'quvchining moslashuvi va rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ko'rsatdi.

Shahnoza Abdullayevna ham shunday xulosaga keladi:

Sinf rahbari Shahnoza Abdullayevna olib borilgan kuzatuvlar, jamoaviy hamkorlik va individual ishlar asosida quyidagi xulosalarga keladi:

Individual harakat yetarli emas. O'quvchining psixologik holatini barqarorlashtirishda yagona pedagogning sa'y-harakatlari samarasiz bo'lishi mumkin. Barqaror natijaga erishish uchun maktab psixologi, fan o'qituvchilari, ota-ona va ma'muriyat ishtirokidagi uyg'un va muvofiqlashtirilgan jamoaviy yondashuv zarur.

Yashirin signallar muhim. O'smirlarning xatti-harakatidagi o'zgarishlar, iboralardagi ichki ziddiyatlar yoki ijtimoiy izolyatsiyaga moyillik — bularning barchasi erta ogohlantiruvchi belgilar sifatida qabul qilinishi lozim. Ularni vaqtida aniqlash va e'tiborsiz qoldirmaslik, muammoni chuqurlashtirishdan oldin hal etishga xizmat qiladi.

Qo'llab-quvvatlash – bu jarayon. O'smirlarga yordam ko'rsatish bir martalik aralashuv emas, balki izchil, ko'p bosqichli va davomli pedagogik-psixologik jarayondir. Maqsad – nafaqat muammoni bartaraf etish, balki o'zini xavfsiz, tushunilgan va qabul qilingan his qiladigan muhitni yaratishdir.

Bu xulosalar amaliyotda sinovdan o'tgan va boshqa o'quvchilar bilan ishlashda ham qo'llash mumkin bo'lgan samarali yondashuvlar asosini tashkil qiladi.

“Bunday vaziyatlarda tezkor yechimlar bo‘lmaydi, lekin bolaning ishonch va ochiqlik sari kichik qadamlari ham oldinga siljishdir. Asosiysi, uning oldida emas, yonida yurishdir,” — deydi pedagog o‘zining kundalik kuzatuvlarida.

Shunday qilib, ushbu keys emotsional qiyinchiliklarga duch kelgan o‘smirlarga samarali hamrohlik qilishning asosiy tarkibiy qismlari sifatida jamoaviy ish, sezgirlik va kasbiy o‘z-o‘zini kuzatishning ahamiyatini ko‘rsatadi.

IV BOB. “KOMPLEKS KEYS: O‘RTA MAKTAB SHAROITIDA O‘SMIRNING EMOTSIONAL VA XULQ-ATVOR QIYINCHILIKLARI”

4.1. Keys: umumiy o‘rta ta’lim maktablari sharoitida o‘smirning emotsional va xulq-atvor qiyinchiliklari

Vaziyat tavsifi:

Dilnozaning xatti-harakatlaridagi keskin o‘zgarishlar ya’ni o‘zini chetga olishi, o‘qishga bo‘lgan qiziqishning susayishi, muallimlarga qopol munosabati, maktab tartib-qoidalariga e’tiborsizlik kabi holatlar o‘smirda ichki emotsional zo‘riqish mavjudligini ko‘rsatadi. Bunday xatti-harakatlar ko‘pincha ko‘zga tashlanmaydigan ruhiy holatning tashqi ifodasi sifatida qaraladi. Inshodagi “Menga baribir, men hech kimga kerak emasman” jumlasida esa qizning ichki ruhiy iztirobda ekanidan, o‘zini yolg‘iz va qadrsiz his qilayotganidan darak beradi.

Qizning tashqi ko‘rinishidagi o‘zgarishlari, jumladan, yorqin kiyimlar va boshqa bolalardan ajralib turishga urinish, ko‘pincha e’tibor talab qilish, o‘zini anglatish va ichki ehtiyojlarni boshqalarga yetkazishga bo‘lgan intilish bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Bu holatlarni anglamasdan qattiq tanbeh berish, qarshilikni kuchaytirishi va qizda yanada yopiqlikni keltirib chiqarishi mumkin.

7-“B” sinf rahbari Shahnoza Abdullayevna o‘quvchilardan biri — 13 yoshli Dilnoza so‘nggi ikki oy ichida keskin o‘zgarganini aytadi. Qizaloq sinfdoshlari bilan muloqot qilishni to‘xtatdi, o‘zini chetga oldi, o‘qishga befarq bo‘lib qoldi, ko‘pincha darslarda befarq o‘tiradi. O‘qituvchilar sha’niga keskin gaplar aytish, darslarda yig‘lash, maktab qoidalarini namoyishkorona mensimaslik paydo bo‘ldi.

O‘qituvchilar qizning tashqi ko‘rinishidagi o‘zgarishni ham payqashdi: ko‘zni qamashtiruvchi makiyaj, yorqin kiyimlar, maktab dress-kodiga mos kelmaydigan kiyimlar.

Ayniqsa, Dilnozaning “Menga baribir, men baribir hech kimga kerak emasman” degan bittagina jumla yozgani kishini tashvishga soldi.

Sinf rahbari qiz bilan muloqot qilishga uringanida, suhbat “baribir tushunmaysiz” degan javob bilan yakunlanadi. Shundan so‘ng Shahnoza Abdullayevna o‘quvchining onasi Kamola Rahmatovna bilan suhbatlashadi. Dastlab ona muammoni inkor etadi va “barcha o‘smirlar shunday bo‘ladi” deb hisoblaydi. Biroq suhbat davomida qizining otasi boshqa shaharda ishlayotganini, o‘zi esa bandligi sababli uyda qizi bilan deyarli muloqot qilmasligini tan oladi.

Vaziyat tahlili:

Dilnozaning xatti-harakatlari oila ichidagi hissiy muvozanatning buzilishi va yetarli psixologik qo‘llab-quvvatlovning yo‘qligi bilan chambarchas bog‘liq. Unga xos bo‘lgan yakkalanib, ziddiyatga bardoshsizlik, befarqlik va insho orqali ifodalangan umidsizlik holatlari emotsional emotsional beqarorlik va yashirin depressiya xavfining muhim belgilaridir. Bu holat o‘smirning psixologik salomatligida chuqur muammo mavjudligini ko‘rsatadi.

Ota-onadan uzoqlik va hissiy aloqaning susayishi bolaning o‘zini yolg‘iz, tushunilmagan va e‘tibordan chetda qolgan kabi his qilishiga olib keladi. Ayniqsa, onaning dastlab muammoni rad etishi ko‘pincha o‘zining psixologik himoya mexanizmlariga bog‘liq bo‘lib, u bolaning ichki holatini to‘g‘ri baholashni qiyinlashtiradi. Shu bois, psixologik-pedagogik hamkorlik doirasida avvalo ishonchli va ochiq muloqot muhitini shakllantirish muhim. Psixolog ota-onaga bolaning emotsional ehtiyojlarini anglash va unga samimiy ko‘mak ko‘rsatish usullarini o‘rgatishi lozim. Ota-ona, pedagog va psixolog o‘rtasida uzviy hamkorlik va doimiy aloqa o‘rnatilishi bolaning bosqichma-bosqich ijtimoiy va emotsional tiklanishiga zamin yaratadi.

4.2 Pedagog va psixologning asosiy qadamlari.

Jamoaviy ishni tashkil etish

Dilnozani qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha jamoaviy ish – sinf rahbari, maktab psixologi va boshqa fan o‘qituvchilarning hamkorlikdagi uchrashuvlari orqali yo‘lga qo‘yiladi. Bu uchrashuvlarda qizning xulq-atvori, hissiy holati va o‘quvdagi o‘zgarishlari muhokama qilinadi.

Ushbu hamkorlik muammoni to‘g‘ri tushunishga, o‘z vaqtida yordam berishga, va har bir mutaxassisning tajribasidan foydalanishga yordam beradi.

Uchrashuvlar asosida Dilnoza uchun alohida yordam dasturi tuziladi. Bu dasturda o‘quv yuklamasini yengillashtirish, psixologik suhbatlar va mashg‘ulotlar, ijtimoiy

ko'nikmalarni rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Mutaxassislar Dilnozaning o'zgarishlarini kuzatib boradilar, kerak bo'lsa, dasturni yangilab boradilar. Muhim jihatlari shundaki bosim o'tkazmaslik, xavotir belgilariga e'tiborli bo'lish, shoshilmaslik, yolg'iz qoldirmaslik, hamkorlikni davom ettirish. Bu yondashuv Dilnozaning o'zini xavfsiz va tushunilgan his qilishiga, ruhiy barqarorlikka erishishiga va maktab muhitiga qayta moslashishiga yordam beradi.

Yaxshilanish ko'rsatkichlari

Maktab sharoitida o'smirlarning emotsional va xulq-atvor muammolari bilan ishlash pedagog va psixologlar uchun muhim va mas'uliyatli vazifadir. O'smirlik davri bu bolaning hayotida jismoniy, ruhiy va ijtimoiy o'zgarishlar kuchayadigan, ichki ziddiyatlarga va stressga nisbatan sezuvchanlik ortadigan davrdir. Dilnozaning holati shuni ko'rsatdiki, oilaviy qiyinchiliklar va yetarli qo'llab-quvvatlovchilarning yo'qligi o'smirning ruhiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Xulq-atvor o'zgarishlari, befarqlik bo'lib qolishi, umidsizlik bularning barchasi jiddiy signal sifatida qaralishi kerak. Muammolarni erta aniqlash maktabdagi eng muhim vazifalardan biridir. O'z vaqtida aniqlangan muammoga berilgan to'g'ri yondashuv o'quvchining shaxsiy rivojlanishiga katta turtki bo'ladi. Dilnozaga yordam ko'rsatishda pedagoglar, psixolog va ota-onalarning hamkorligi hal qiluvchi rol o'ynadi. Ular birgalikda qizning o'ziga bo'lgan ishonchini tiklash, maktabga va jamoadagi hayotga qayta moslashishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratdilar. Shunday ishonchli muhitda o'smir o'z kechinmalari haqida ochiq gapira oladi, tanqiddan yoki jazodan qo'rqmaydi. Pedagoglar nafaqat o'qituvchi, balki emotsional yordamchi bo'lishi zarur. Ota-onalarning faol ishtiroki esa uyda psixologik barqarorlikni ta'minlaydi. Bu esa bolaning xatti-harakatini yaxshilashga va o'zaro tushunishni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shuni unutmaslik kerakki, o'smir bilan ishlash bu tez natija beradigan jarayon emas. Bu – izchil harakat, sabr-toqat va muntazam qo'llab-quvvatlovchi yondashuvni talab qiladi. Har bir kichik ijobiy o'zgarish e'tibor va rag'batga loyiq. Aksincha, bosim o'tkazish, taqqoslash, yoki muammoni inkor qilish holatni og'irlashtirishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, o'smirning holatini yaxshilashga qaratilgan kompleks yondashuv ya'ni diagnostik, psixologik yordam, pedagogik yondashuv va oilaning ishtiroki samarali natijaga erishishning eng to'g'ri yo'lidir. Buning asosiy maqsadi bola o'z imkoniyatlarini kashf etib, hayotdagi qiyinchiliklarga bardoshli bo'lib ulg'ayishi, sog'lom va qo'llab-quvvatlovchi muhitda o'sishidir.

Xulosa

Maktab sharoitida o'smirlarning emotsional va xulq-atvor muammolari bilan ishlash pedagog va psixologlar uchun muhim va mas'uliyatli vazifadir. Turli yoshdagi bolalar bilan ishlashda ya'ni maktabgacha yoshdan o'smirlik davrigacha har bir bosqichda xos psixo-emotsional rivojlanish xususiyatlarini inobatga olgan holda sezgir, individual va kompleks yondashuvni talab qiladi.

Azizbek va Dilnoza misollarida ko'rib chiqilgan holatlar shuni ko'rsatadiki, bolalarning xatti-harakatidagi o'zgarishlar ko'pincha ichki noqulaylik va ruhiy muvozanatsizlik belgilaridir. Bu signallarni vaqtida aniqlash va e'tibordan chetda qoldirmaslik muhim ahamiyatga ega. Azizbek misolida maktabgacha yoshdagi bolalarda agressivlik yoki nizoli xatti-harakatlar asosan qondirilmagan ehtiyojlar, xavotir yoki ijtimoiy ko'nikmalarning yetarli shakllanmaganligi bilan bog'liq bo'ladi. Bu yoshdagi bolalar uchun xavfsiz, barqaror va tushunarli muhit yaratish, shuningdek, tarbiyachi va oila o'rtasidagi samarali hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi. Dilnoza misolida o'smirlik yoshida esa muammolar ko'proq yashirin, ammo chuqur shaklda namoyon bo'ladi. Bu bosqichda o'quvchi kuchli emotsional va ijtimoiy bosim ostida qoladi. Natijada befarqlik, ziddiyatlilik yoki namoyishkorona harakatlar paydo bo'ladi. Bunday vaziyatlarda o'qituvchi, psixolog va ota-onalardan iborat fanlararo hamkorlik guruhi o'smirni tushunishga va unga zaruriy yordam ko'rsatishga qodir bo'ladi.

Ikkala holatda ham quyidagi jihatlar muhim hisoblanadi:

- psixologik muammolarni erta aniqlash va o'z vaqtida aralashuv;
- bola va uning oilasi bilan ishonchli va samimiy muloqot o'rnatish;
- empatik va madaniy jihatdan sezgir yondashuvni qo'llash;
- qo'llab-quvvatlashning samarali va izchil usullarini tanlash.

Shuni unutmaslik kerakki, bolaning xulq-atvori va emotsional holatidagi ijobiy o'zgarishlar tezkor emas bu doimiy e'tibor, sabr-toqat va tizimli yondashuvni talab qiladigan jarayondir. Tanqid, bosim yoki muammoni e'tiborsiz qoldirish bolada ishonchning susayishiga, begonalashuv va yanada yopilishiga olib kelishi mumkin.

Xulosa sifatida, emotsional va xulq-atvor qiyinchiliklarini boshdan kechirayotgan bolalarni qo'llab-quvvatlash ularning ijtimoiylashuvi, ichki barqarorligi va shaxsiy rivojlanishi uchun muhim omil hisoblanadi. Tarbiyachi va pedagoglar esa bu yo'lda ishonchli tayanch bo'lishi, bolaning imkoniyatlarini ochib berishi va uning oilasi bilan hamkorlikda sog'lom rivojlanish uchun qulay muhit yaratishga xizmat qilishi lozim. Bu nafaqat har bir bolaning hayotiga, balki butun ta'lim jamoasining farovonligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-son "O'zbekiston — 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/7369703>. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 09.02.2025-y., 06/25/16/0119-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi PQ–232-son "Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutini tashkil etish to'g'risida"gi qarori. <https://lex.uz/docs/6981166>. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 25.06.2024-y., 07/24/232/0446-son.
3. Boguslavskaya, M.V., Grigorieva, M.V. Maktabgacha yoshdagi bolaning psixologiyasi: guruhda shaxs rivojlanishi va xulq-atvori. Moskva, Prosveshchenie Publ., 2020.
4. Obukhova, L.F. Rivojlanish psixologiyasi: bolaning tug'ilishdan 17 yoshgacha rivojlanishi. Moskva, Trivola Publ., 2018.
5. Romanov, A.A. Hamkorlik metodikasi: nazariya va amaliyot. Sankt-Peterburg, Rech Publ., 2019.
6. Faber, A., Mazlish, E. Bolalarni tinglash uchun qanday gapirish va bolalarni gapirtirish uchun qanday tinglash kerak. Moskva, Eksmo publ., 2021.
7. Kurbatova, E.S. Maktabgacha ta'lim muassasalarida yurish-turishi qiyinchiliklari bo'lgan bolani psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash. — M.: VLADOS, 2022.
8. Erik Erikson — "Identifikatsiya va hayot tsikli" — O'smirlarning psixologik rivojlanishi, o'ziga xoslik xususiyatlari va ijtimoiy rollarni shakllantirish xususiyatlariga bag'ishlangan klassik ish.
9. Lev Vygotskiy — "Pedagogik psixologiya" — Ijtimoiy o'zaro ta'sir orqali rivojlanish nazariyalari, atrof-muhitning ahamiyati va bolani o'rganish va rivojlantirishda qo'llab-quvvatlash.
10. Jon Bowlbi — Biriktirish va yo'qotish — Oilaviy munosabatlar va bog'liqlikning bola va o'smirning hissiy rivojlanishiga ta'sirini o'rganish.
11. Alfred Adler — "Amaliy psixologiya o'qituvchilar uchun" — Qiyin o'smirlar bilan ishlash bo'yicha tavsiyalar, qo'llab-quvvatlash usullari va motivatsiyasi.
12. Mariya Montessori — "Bolaning erkin rivojlanishi pedagogikasi" — ta'limga qulay muhit yaratish va mustaqillikni rivojlantirish tamoyillari.
13. Slasten V.I. "O'smirlik psixologiyasi" — O'smirlik davrining psixologik xususiyatlarini zamonaviy o'rganish, moslashish va ijtimoiylashtirish muammolari.

14. R.Kuchkarova, Psixologiya o'qituvchisi, "Hayotni himoya qiling" xayriya jamg'armasi psixolog-maslahatchisi, Moskva

15. Xuruqov I. – Bolalar psixologiyasi va tarbiyasi.. – Toshkent: "Fan", 2019-y.
Bolalarning yosh psixologik xususiyatlari va tarbiyada individual yondashuv

15 <https://casel.org/fundamentals-of-sel/what-is-the-casel-framework>

